



AMANULLAYEV ABDINABI ABDIMUMINOVICH

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI
GANCH O'YMAKORLIGI TO'GARAGI FAOLIYATINI
BOSHQARISHGA TAYYORLASHNING TASHKILY
METODIK ASOSLARI.**



MONOGRAFIYA

Namangan-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

AMANULLAYEV ABDINABI ABDIMUMINOVICH

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI
GANCH O'YMAKORLIGI TO'GARAGI FAOLIYATINI
BOSHQARISHGA TAYYORLASHNING TASHKILY
METODIK ASOSLARI**

MONOGRAFIYA

Namangan-2022

UO'K: 347.782

BBK: 851

A- 46

ISBN: 978-9943-8704-6-8

Ushbu monografiyada oliy o'quv yurtlari talabalarini ganch o'ymakorligi to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashning nazariy va metodik asoslari yoritib berilgan.

Monografiya oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan maktab, maktabdan tashqari muassasalar, to'garak rahbarlari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchi va talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: O'.Asqarova pedagogika fanlari
doktori, professor.

D.Pulatov san'atshunos fanlari
nomzodi, dotsent.

Monografiya Namangan davlat universiteti ilmiy-texnik
Kengashining 2022 yil 10 iyundagi qarori asosida chop etildi.

ISBN: 978-9943-8704-6-8

©Amanullayev Abdinabi Abdimuminovich

© "Usmon Nosir media"? Namangan-2022

SO'Z BOSHI

Jahonda fan va texnikaning rivojlanishi, turli mavzudagi texnologiyalarning hayotga jadal sur'atda kirib kelishi munosabati bilan ta'lim mazmunini barqaror taraqqiy ettirishga bo'lgan talab yanada kuchaydi. 2030 yilgacha qabul qilingan barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasida ham "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Jamiyatning zamonaviy talab va ehtiyojlari asosida barcha sohalarda bo'lgani kabi bevosita badiiy ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish tasiriy va amliy san'atning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Zero, tasviriy va amaliy san'atda ma'lum bir xalqning dunyoqarashi, ruhiy va ma'naviy-estetik kechinmalari, hayotiy tajribasi, milliy-madaniy merosi, qadriyatlari o'ziga xos tarzda tasvirlanadi.

Hozirgi kunlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning ma'lum yo'nalishlaridan biri ta'lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Chunki, o'z kelajagini o'ylagan har bir xalq, millat yosh avlodning fazilatlari haqida qayg'urishi tabiiydir. Dunyo yaralibdiki, har bir millat fuqarosi inson sifatida go'zallikka intiladi. Shuning uchun ham bo'lsa kerak insonlar ichki va tashqi qalb go'zalligini yuqori darajada bo'lishiga intiladilar. Mana shu go'zallikka bo'lgan chanqoqlik, insonlarni nafosat olamining yuksak cho'qqisiga chorlaydi va shu orqali ular go'zallikdan estetik zavq oladilar. U hoh qadimda yaratilgan xalq

amaliy san'ati asari bo'lsin, hoh qadimgi topilma yoki zamonaviy asar bo'lsin, ular yonida soatlab turib qoladilar. Bu asarlarni barchasi tariximizning qanchalik buyuk ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi ПФ-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va 2020 yil 23 sentyabrdagi ПҚ-4038-son "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyati yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 21 apreldagi ПҚ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga taaluqli boshqa meyoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiyada muayyan darajada xizmat qiladi.¹

Tariximizni haqqoniy yoritishda xalqimizning yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qadimiy shaharlarimizdagi yodgorliklar, obidalar, inshootlarni qayta qurish, ta'mirlash, asl holida saqlab qolish va ularni keyingi avlodlarga yetkazish kabi ishlarga alohida e'tibor berildi. Bu bejiz emas. Biz har doim mustaqillik, ozodlik g'oyalari haqida fikr yuritganimizda, mustaqilligimizning abadiy bo'lishini va uning kelajak avlodlarga yetkazishimizda san'atning roli juda kattaligini anglashimiz lozim.

Yoshlarni ona Vatanni sevish, tarixga hurmat ruhida tarbiya-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2020 y. , 07/20/4688/0475-son.

lash, har biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi g'ururlanishni bilishi orqali ularda san'atga bo'lgan muhabbatni shakllantirish hozirgi davr ijodkorlarining vazifasi ekanligini eslatib turadi. Davlatimiz rahbari mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalashda ulkan, olamshumul ishlarni amalga oshirmoqda. Yurtimiz yoshlari o'z orzularini amalga oshirib jahon arenalaridan g'oliblik o'rinlarini egallab kelmoqdalar.

Mana shular o'zbek millatining faxrlari emasmi? Prezidentimiz qayta – qayta ta'kidlab aytganidek, inson tarbiyasi murakkab va uzluksiz davom etadigan jarayon hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonimiz yangi bosqichga qadam qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanishni singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin – qizlarning bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida hozirgi zamon yoshlari oldiga ulkan talablarni qo'ydi.

Tasviriy san'at inson hayotida, uning axloqiy tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Insonning his qilish, san'at ob'ektidan hissiy lazzatlanish xususiyatlarini shakllantirishda san'atning yo'naltiruvchi asosiy kuchini ko'ramiz.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan inqilobiy o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishda

o'zining ijobiy natijalarini qo'shmoqda.

Tasviriy san'at ta'limi mazmunini takomillashtirishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlardan, turli to'garaklardan samarali foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Shu bois tasviriy san'at o'ziga hos hususiyat kasb etib, to'garaklarni tashkil etishda o'quvchilarning qiziqishi va qobilyatini inobatga olishni taqozo etadi.

Keyingi vaqtda hamma sohalarda bo'lgani kabi, xalq ta'limi tizimida ham ko'pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hususan, o'quvchilarni badiiy jihatdan voyaga yetkazishda milliy xalq amaliy san'ati tarixini chuqur o'rganish maqsadida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni ekskursiyalarga olib chiqishga katta ahamiyat berilmoqda.

Ushbu monografik ishda tasviriy san'at darslarida ganch o'ymakorligi tarixi va ganch o'ymakorligi to'garagini tashkil etishning ilmiy nazariy va amaliy jihatlari bayon qilingan.

BIRINCHI BO'LIM

TALABALARNI GANCH O'YMAKORLIGI TO'GARAGI ISHLARINI BOSHQARISHGA TAYYORLASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI.

Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash muammosining pedagogik nazariya.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limda o'qitiladigan fanlar qatorida tasviriy san'at fani o'qituvchilari oldiga ham

mashg'ulotlarni mukammal andoza asosida loyihalash, mazkur loyihalardan optimal ravishda foydalana olish, tahsil oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirilishi, ularda fan yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi va amaliyotga qo'llay olish layoqatlarini shakllantirish kabi vazifalar qo'yilmoqda.

Tasviriy san'at – “ko'rib qabul qilingan haqiqatni qayta takrorlovchi badiiy ijodkorlik turlari guruhi: surat, grafika, haykaltaroshlik bo'lib, bular qatoriga tasviriy ifodali shaklga ega bo'lgan arxitekturani ham kiritish mumkin”. Borliq va badiiy masalalarni ko'rsatib berish usullari tasviriy san'at turlari hususiyatlarini belgilab beradi. Masalan: surat chizishda – dunyo obrazlari, ranglar boyligi bilan; grafikada – rasm chiziqlari, shtrixlari, rang tuslari orqali; haykaltaroshlikda – plastik obrazlarni ifodalash orqali. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at o'ziga hos funktsiyalarga ega. Badiiy qimmatli san'at – tasviriy san'atning o'ziga hos vazifasi – estetik ehtiyojlarni qondirish, quvonch, rohat bag'ishlash, ma'naviy boyitish, estetik faoliyatga xohish uyg'otishdan iborat. Shu bilan birga, idrok etish va albatta tarbiyaviy vazifasini ham inobatga olish zarur. Xalq amaliy san'atining tarixiy kelib chiqishi ko'hna zamonlarga borib taqaladi. Bashariyat ulg'ayib borgan sari xalq amaliy san'ati ham yuksala boradi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qo'l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro'zg'or buyumlariga

bo'lgan extiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o'ymakorligi, suyak o'ymakorligi, keyinchalik esa ganch o'ymakorligi ham sekin astalik bilan o'z rivojini topdi. Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi husn-jamolini dunyo me'morchiligida nomoyon etib kelmoqda. Ayniqsa O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga hos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi.

Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismiga ham qo'llanilgan. Har xil geometrik shaklli qilib g'isht terish rivojlangan. Afrosiyobda arxeologik qazilmalar natijasida X-XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlari topilgan. Ayniqsa, izora (panel) ganchi topilgan bo'lib, unda geometrik va o'simliksimon naqshning chuqur o'ymalari ishlatilgan. O'yma chuqurligi 2–3 sm gacha bo'lgan, naqsh qoramtir soya hisobiga aniq oppoq bo'lib ko'rinib turgan. Ganch devorga qalin qilib suvalgan, naqsh tasviri devorning sirtiga to'ppa to'g'ri chizilib o'yilgan. O'sha davr ustalari axtadan (ulgudan) foydalanmaganlar. Binolarning tashqi qismiga esa qo'yma asosida ganch ishlari bajarilgan.

Ganch o'ymakorlik san'ati asirlar davomida o'ziga hos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning eng qadimgi o'rta asrlardagi va XX asrda rivojlanishni ko'zdan kechirib, o'rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o'ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qilishini kuzatamiz. O'zbekiston hududidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda ganch

o'ymakorlik san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz buni Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr) Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI-VII asrlarda ibodathonalari, qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Qadimgi ganch o'ymakorligi realistik tasvirlar asosida ishlangan. Varaxshadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalari topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarining o'yma namunalari ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini hukmron bo'lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni taqiqladi.

IX-X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qalab naqsh solish, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topadi. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatildi. Naqshlar murakkablashib bordi. XI-XII asrlarda O'zbekiston hududidagi arheologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan. Girix - to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turi. Girix to'g'ri, egri va aralash chiziqlarga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga hos tarqalishi bezak san'atining rivojlanishida yangidan-yangi

imkoniyatlar ochib berdi.

Buni O'rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko'rish mumkin. Hususan VII-VIII asrlardagi hukmronliklarning Varahshadagi saroylarda bu san'atning hilma-hil namunalari saqlangan. O'zbekistonda ganch o'ymakorlik san'ati ham juda qadimdan rivojlangan bo'lib hozirgi kunda ham o'ziga hos hususiyatlarini yo'qotmagan. O'zbekistonda hunarmandlar bo'limi 1918 yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi hunarmandchilik bo'yicha izlanishlar olib borish, iqtisodiy statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish, ishlab chiqarishga joriy etish, maktablardagi o'quv ustahonalarini tiklash, muzeylar hunarmandlar birlashmasini tashkil etishdan iborat bo'lgan. 1918-1920 yillarda hunarmandlar uyushmasi Toshkentda o'lkashunoslik hunarmandlariga o'quv namunaviy ustahonalar va hunarmandlar bo'yicha muzey tashkil etildi va ganch o'ymakorlar naqqoshlar, yog'och o'ymakor ustalar ajoyib ishlari bilan qatnashib ko'pchilikka manzur bo'ldilar. O'zbekiston hunarmandlari o'z ishlari bilan 1925 yilda Parijdan keyin Leyptsigda, 1927 yilda jahon bo'yicha, 1937 yilda Parijda «San'at va texnika hozirgi kunda» mavzusidagi xalqaro ko'rgazmalarda «Gran pri», ikkita kumush medal va bitta oltin medal bilan mukofotlandilar. O'zbekistonlik ganchkor ustalari tomonidan arxitektura yodgorliklari: murakkab muqarnoslarni, nozik ganch o'yima ishlarini qayta tiklandi. Ular Minorai Kalon (XII asr), Magoki Attor maschidini, (XII asr), XVII asrda qurilgan Sherdor, XVII

asrda qurilgan Abdulazizxon madrasasini va shunga o'xshash arxitektura yodgorliklariga qayta hayot baxshida etdilar. Bu murakkab ishlarda respublikamizdagi mashhur ganchkor ustalar o'z kuchi, quvvati va bilimini ayamadilar.

Buxorolik ganch o'ymakorlar naqqoshlari safida usta Shirin Murodov, Shoir Ibodov, Abdurahim Xayotov, Samarqandlik Rashid Jalilov, Shamsiddin G'ofurov, Abdurashid Jalilov, Akram Umarov va boshqa ko'pgina kamtarin hunarmandlar bo'lib, ular ganch o'ymakorlik san'atini rivojlanishida o'z bilim va kuch, g'ayratlarini ayamadilar.

Toshkentda 1947 yilda me'mor A.Muhamadamin boshchiligida Kurant binosi qurildi bu qurilmani bezashda usta Shirin Murodov qatnashdi. U naqsh kompozitsiyalarini yuqori badiiylik bilan o'yib bajardi. Ganch o'ymakorlik ishlari butun bino arxitekturalariga juda mos tanlangan. Kurant binosining sharafa, ustunlari, panjaralari o'yma ganch bilan bezatildi. Sharafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. Har bir panjaraga alohida kompozitsiya chizilib atroflariga moslab zanjir hoshiya berildi. «Boburnoma»da har bir o'lka, shahar, qishloqlardagi, saroylar, bog'lar, esda qolarli qadimiy yodgorliklar, xalqarning o'ziga hos hususiyatlari, obidalarning batafsil tariflari o'rganilgan bo'lib, Zahiriddin Muhammad Boburning o'ziga hos mo'jaz bayon tili bilan keyingi avlodga yetkazildi. Ana shu va shu



***Usta shirin
Murodov***

kabi manbalar san'atshunoslik fakul'teti talabalaridan to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlash ishining mazmunida ham tarixiy-nazariy, ham amaliy faoliyat uchun asos sifatida qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan Markaziy Osiyo san'ati jumladan O'zbekistonning amaliy san'atining shakllanishi va rivojlanishi bir necha ming yillik tarixga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli tariximizni to'g'ri talqin etish, anglash, uni ma'naviy me'ros sifatida kelajak avlodga o'rgata olish, ma'naviy boylik sifatida avaylab-asrash, boyitish imkoniyatlariga ega bo'ldik.

Xalqimizning uzoq o'tmishda bosib o'tgan suronli yillari, ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma'naviy-tarixiy meroslarni, ma'naviy va moddiy qadriyatlarni o'rganish va o'rgatishda bu qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonini amalga oshirishda uning bosh



ijrochisi-o'qituvchi (to'garak ishlarini boshqaruvchisi)ning o'rni beqiyosdir.

Insoniyat jamiyatining tarixida ongli odamning shakllanish tarixi uning kundalik ehtiyoj buyumlarini yasab olishi eramizdan avvalgi 40 minginchi yillikdan boshlangan deb tahmin qilinadi, Ongli odamning yashash uchun kurashi, tabiat injiqliklaridan-hodisalardan saqlanishi uchun yog'ochlardan, toshlardan va boshqa qattiq qotishmalardan turli buyumlar, moslamalar yasab, boshpanalar qurib olishi va vaqt o'tishi bilan oddiydan murakkabga o'sib borib, eramiz boshlariga kelib, asta-sekin ularni estetik jihatlariga ham e'tibor qaratilishi natijasida chiroyli, qulay pishiq san'at asarlari darajasigacha borib yetgan. Markaziy Osiyo davlatlari tarixida yuz bergan suronli yillar oqibatida qurilgan minglab tarixiy yodgorliklar, me'moriy inshootlar buzilib, yo'qolib ketdi.

Ammo, Xiva, Urganch, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Yassi,



Urgut, Toshkent, Rishton, Namangan, Farg'ona, Andijon, Qo'qon kabi shaharlarda bir qator bebaho me'moriy obidalar qad ko'tarib turibdi, ular jahon madaniyatining noyob durdonasi, umumbashariy qadriyat sifatida jahon ommasiga ma'naviy ozuqa ulashib kelmoqda.

Xiva ganch o'ymakorlik maktabi vakillari safiga Xivalik ustalar S.Xudayberganov, K.Polvonov, B.Bobojonov, R.Masharipov va uning shogirdlarini kiritish mumkin. Ular bajargan ishlar qadimiy uslubda bo'lib, bezaklar asosan medal'yon shaklida o'yiladi. Bu o'yma uncha chuqur bo'lmay juda mayda o'yilgan huddi yog'ochdan o'yilganga o'xshaydi. Farg'ona ganch o'ymakorligi maktabi vakillaridan biri Qo'qonlik Said Mahmud Norqo'zidir. Farg'ona naqshi Ho'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublar majmuasidan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo'lgan naqshlar va ko'plab osori atiqalar bugungi kungacha saqlanib qolingan. Qo'qondagi Madalixon dahasi va Dahai Shohon, Hudoyorhon o'rdasidagi va boshqa naqshlar o'ziga hos ko'rinishga ega bo'lsada, Farg'ona naqshlarida ko'proq Buxoro, Xiva naqshlarining ta'siri seziladi. Farg'ona naqqoshlari binolarni bezashda girix, o'simliksimon (islimiy) va gulli girixlardan keng foydalanganlar. Kompozitsiyalarning simmetriyali bo'lish printsiptiga amal qilganlar. Farg'ona naqqoshlik maktabi boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarining tabiatga juda yaqinligi, erkin

ishlanishi, ranglarning kontrastligi bilan farq qiladi. Bulardan tashqari, Farg'ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g'uncha ramzlaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanib kelinadi. Farg'onalik naqqoshlar chetlari chiroyli qilib, ichiga islmiy shakl tushirilgan qizil, yashil bo'yoqlar bilan ishlashni afzal ko'radilar. Farg'ona naqqoshlik maktabining namoyandalaridan biri Saidmahmud Norqo'ziev hisoblandi. Samarqand ganch o'ymakorligi maktabi vakillaridan davlat mukofoti laureyati Q.Jalilovni ta'kidlab o'tish joiz. Uning ishlarida sharafa, geometrik ornamentlar, ruta zanjiri kompozitsiyalarining ajoyib namunalari ishlatilganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga shiftga geometrik naqsh grix o'yib, oralariga o'yma ismli naqsh kompozitsiyalari joylashtirish uslubidan keng foydalanilgan.

Buxoro naqqoshlik maktabi. Buxoro naqshi hamma naqshlardan naqsh kompozitsiyalarining mukammalligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girixlar aniq, puxta o'lchamda ishlatilishi o'simliksimon naqshlarning o'ziga hos san'at bilan ishlangan naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e'tibor berilishi bilan farqlanadi. Usta Shirin Murod Buxorocha milliy va zamonaviy usulni qo'llagan. U oyna zaminli ganch o'ymakorligidan foydalanganligi bois hona yanada keng qilib ko'rsatilgan. Keksa Usta Shirin Murod Buxoroliklarga hos «tabaqa pardozi» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha yetkazib kelgan. U ajoyib qandil ishlab, uyning shiftiga qubballi qilib muqarnas ishlash

usulidan foydalangan.

1913-1914 yillarda Buxoroda amir Ahadhon tomonidan Sitorai Mohi-Hossa qurildi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin amalga oshirgan bo'lib, u ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa, oq uy mehmonhonasiga ishlangan ganch o'ymakorlik asarlarini o'sha davrdagi ganch o'ymakorligining ajoyib namunasi deb hisoblasa bo'ladi. U oyna zaminida ganch o'ymakorligi



*Sitorai Mohi-Hossa
saroyi*

asosida bajarilganligi, o'zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilganligi bilan ajralib turadi. U o'sha davrda eng ko'zga ko'ringan ganchkor ustalardan edi.

Toshkent naqshlari o'zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o'tishi, aniq bir koloritga qat'iy rioya qilinishi, geometrik va o'simliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar, ko'pincha, yashil gammada ishlanadi. O'simliksimon naqshlardan oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar bilan bir vaqtda murakkab geometrik naqshlardan keng foydalanilgan. Naqqosh ustalardan Jalil Hakimov, Toyir To'xtaxo'jaev, Olimjon Qosimjonov, Yokubjon Raufov, Anvar Ilhomov, Komil Karimov va boshqalarni Toshkent

naqqoshlik maktabining asoschilari deb hisoblash mumkin.

Xiva naqshi Samarkand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Rang jihatidan naqshlarning umumiy rangi, keyincha, havo rang koloritda ishlanadi. Ranglar kam ishlatilsada, o'ziga hos ko'rkamlikka ega. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar ko'p ishlatiladi. Xorazm naqqoshlari butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib, moviy va yashil bo'yoqlar berishni yaxshi ko'rganlar. Kompozitsiyada naqshlarning tuzilishiga qarab, asosan novda, spiralsimon, aylana singari murakkab naqshlar hosil qilingan.



Xiva Ko'hna ark saroyi

Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san'atini o'z davrning yuqori cho'qqisi desa bo'ladi. XII asrda muqarnaslar (stalaktitlar) paydo bo'ldi va ko'pgina binolarni bezashda qo'llandi. Muqarnaslar oddiy ganch o'ymakorligidan farqi, uning murakkabligidir. U tahmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo'llanila boshlandi. Binolarning ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar, ayniqsa, ajralib turadi. XIII asr ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi. XVI-XVIII

asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangi-yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o'ymakorligi, uzviy bog'langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Koshin va toshdan o'yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta-sekin minoralarning ichki qismiga qo'llaniladigan bo'ldi. Uning tashqari qismida esa juda kam qo'llanildi.

XVIII asr ganch o'ymakorligida mashhur bo'lgan ustalardan biri Usta Mulla Obid hisoblanadi. Uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o'z davridayoq xalqqa tanildi. Muhammad Muso o'g'illari Madusmon, Isoxon va Yusufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlashgan, g'isht terishda ham obro' qozonishgan.

Mamlakatimiz hududlarida ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlari hisoblandi. Bu davrda ganchkor ustalarning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi, takomillashib bordi. Buning natijasida ganch o'ymakorligining barcha turlari rivojlana boshladi. O'sha vaqtlarda qurilgan binolarga halq ustalari yorqin jilvali bo'yoqlar bezash ishlarini olib bordilar, ganchga yanada jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga hos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ganch o'ymakorligi bo'yicha to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashda ushbu qonuniyatlarni puxta o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu tadbir bevosita

oliy o'quv yurtlarining Badiiy-grafika fakul'tetlarida tasviriy san'at va chizmachilik ixtisosliklari bo'yicha dars berayotgan mutahassislar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. SHu bois ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash muammosini tasviriy san'at ta'limining nazariya va amaliyotdagi ahvoli doirasida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda tasviriy san'at sohasidagi mavjud muammolarga bag'ishlangan bir qator dissertatsion tadqiqotlar olib borilgan (N.Abdullaev, S.Bulatov, A. Vosixov, A.Inog'omov, B.Oripov, A.Sulaymanov, N.Tolipov, A.Turdaliev, I.Yusupov, O.Xudoyorova, R.Hasanov), ularning ayrimlari aynan to'garak ishlariga bag'ishlangan (S.Bulatov, A.Vosixov, A.Sulaymonov, Q.Qosimov). Biroq, bu tadqiqotlarda to'garak ishlarini boshqarish, hususan talabalarni ganch o'ymakorligi bo'yicha to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlash muammosi ilmiy jihatdan o'rganilmagan. Shuningdek, ayrim metodistlar (B. Azimova, J.Majidov, S.Usmonov, X.Egamov va b.) ham to'garak ishlarining ba'zi jihatlariga oid o'quv va metodik adabiyotlar ishlab chiqqanlar. Lekin ularning ishlanmalarida ham dissertatsion tadqiqotlarida bo'lganidek to'garak ishlari boshqaruvchilarini tayyorlash masalasi ochib berilmagan.

Ushbu monografiyada ganch o'ymakorligi bo'yicha to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlash tasviriy va amaliy san'at hamda chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlash negizida amalga oshirildi. Chunki, hozirgacha Respublika oliy o'quv yurtlarida sinfdan va

maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi bo'yicha mahsus ma'lumotga ega bo'lgan mutahassislar tayyorlash yo'lga qo'yilmagan. Pedagogik kollejlarda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar jamiyatning yuqori talablarini qondirishga qodir emas. Shuning uchun ham hozirgi mavjud imkoniyatlar to'garak ishlarini boshqaruvchilarini aynan u yoki bu fan o'qituvchisi tayyorlash negizida oliy o'quv yurtlarida amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilar tayyorlashning turli jabhalariga oid mahsus tadqiqotlar M.Achilov, M.Jumaev, U.Nishanaliev, N.Sayidaxmedov, T.To'laganov, N.Shodievlarning dissertatsiyalarida o'rganilgan.

Oliy ta'limni rivojlantirishning besh yo'nalishi o'qituvchi-muallimlar tayyorlash sifatini oshirishga, hususan, to'garak ishlarini boshqarishga yuqori professional darajasidagi mutaxassislarni tayyorlashni kafolatlaydi.

Urushlar va tabiiy ofatlar tufayli vayron holga kelgan obidalar mustaqilligimiz sharofati tufayli ta'mirlanib, qayta tiklanib tuzatilmoqda. Bu ishlarni muhandislar, me'morlar bilan bir qatorda halq amaliy san'ati ustalari amalga oshirmoqdalar. Aynan mana shu ishlar halq ustalarini o'ziga hos maktab vazifasini o'tamoqda. Ular ijodkorlarimiz san'atini yangi mazmun va uslublar bilan boyitib, amaliy san'atni rivojiga barakali hissa qo'shib kelmoqdalar.

Mashhur xalq ustalari, me'morlari, muxandislari hisoblangan Me'mor Ali ibn Muhammad Sarahsiy (1385-1400) tomonidan qurilgan Oqsaroy, ustod Muhammad Yusuf, Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy Go'ri Amir Majmuini (maqbara, madrasa honaqqoh) Sherdor madrasasining bosh me'mori Abduljabbor, koshinkor usta Muhammad Avaz Samarqandiy, Shohizinda ansambli ota va o'g'il Shamsiddin va Zayniddin Buxoriylar, halq ustalari Ali Nasafiy, Shayx Muhammad ibn Hoji Bandgir, ustod Faxriali, Yusuf Sheroziy, usta Siddiq kabilarning nomlari o'zlari qurilishida qatnashgan obidalarida saqlanib qolgan.



Sherdor madrasasi

Qadimiy xalq ustalari va me'morlarining ishlarini davom etgiran, ko'plab binolarni ta'mirlashda yangi zamonaviy binolarni qurishda, bezashda ishtirok etgan asrimizning buyuk ustalari usta Shirin Murodov, usta Shamsiddin G'ofurov, usta Abduhamid Yunusov, usta Ibrohim Shermuhammedov, usta Saidmahmud Norqo'ziev, usta Mahmud Usmonov, usta Abdulla Boltaev, usta Eshmuhammad ganchkor usta Abdullo, usta Abdurahim Hayotov, Ustod Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Hayot Nosirov, Usta Xoji G'ofiz, usta Nasrullaboy, usta Abdujalil, usta Savri, usta Nasrullo Yodgorov, usta Abdufattoh va ko'plab halq ustalarining bebaho meroslari, ijod mahsullari halqimizning, qolaversa, jahon

san'atining durdonalariga aylandi.

Nomlari yuqorida zikr etilgan ustalarning badiiy me'rosi halq amaliy san'atining barcha turlaridan malakali mutahassislar, jumaladan, to'garak ishlarini boiqarishga tayyorlashning mazmuni va metodikasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etganligi bois mazkur tadqiqotda bu me'rosni o'rganish diqqat markazida bo'ldi. Bu bir jihat hisoblansa, ikkinchi jihat bu san'at turlari ham amaliy ham nazariy jihatdan tadqiq etish uchun boy me'ros qadriyat sifatida qadrlidir. Xalq amaliy san'ati tarixini o'rganish o'lkamizning turli hududlarida mahalliy sharoit va an'analariga alohida ahamiyat berilganligini ko'rsatadi,

Markaziy Osiyoning amaliy san'ati, me'morchiligi tarixi Yevropaning bir qator tarixchilari, arxeologlari, san'atshunoslarini ham qiziqtirgan. Shu bois N.E.Simonov, V.Stasov, P.P.Pokrishkin, S.M.Dudin, N.I.Veselovskiy, A.V.Husevalar XVII asrning 80-90 yillaridayoq Markaziy Osiyoni o'rganish bo'yicha uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda qatnashib, O'rta Osiyoning me'morchiligi, tasviriy va amaliy san'ati to'g'risida asarlar bitdilar. Bu izlanishlarni davom ettirishda O'zbekistonlik olimlar ham fundamental tadqiqotlar olib bordilar. Tarixchi olim, arxeolog G.A.Pugachenkovaning Markaziy Osiyoda, Turkmanistonda olib borgan izlanishlari tufayli Markaziy Osiyo me'morchiligi, amaliy san'atiga oid 300dan ziyod maqolalar risolalar asarlar bitildi [118].

L.I.Rempel Markaziy Osiyodagi tarixiy taraqqiyotni, me'morchilik obidalarini, naqshlarning kompozitsiyalarini,

uslublarini batafsil o'rganib, yirik tarixiy asarlar yozdi. Uning "Arxitekturniy arnament Uzbekistana" nomli asarida O'zbekiston hududidagi me'moriy obidalarni bezatishda (ular ichida ko'plab ganch o'ymakorligi namunalari bor) qo'llanilgan naqshinkor bezaklarning kompozitsion tuzulishlari, mazmuni chuqur tahlil etilgan. Uning andozalari bugungi kunda ham ganch o'ymakorligi namunalari yaratish bo'yicha andoza vazifasini o'tamoqda [120].

P.SH.Zoxidov o'zining qator ilmiy asarlarida me'morchilik san'ati, tarixiy obidalarining (ayniqsa Samarqandda) yaratilishi me'mor ustalar hayoti va ijodi, uslublari, to'tgan yo'llari to'g'risida ma'lumotlar berishga e'tiborini qaratdi [62]. Halq amaliy bezak san'atining tarixi, yo'nalishlari, sohalarini o'rganishda pedagog olim S.Bulatovning ilmiy faoliyati ibratlidir. XX asrning oxirgi o'n yilligida olimning xalq amaliy bezak san'atining turli sohalarga bag'ishlangan yirik asarlari nashr ettirildi [27; 28; 29; 30].

Bu nashrlarda o'zbek xalq amaliy bezak san'atining rivojlanishi xalq ustalarining ijodiy yo'nalishlari ganchkorlik sohasiga bag'ishlangan [28: 30]. Olimning o'zbek amaliy bezak san'ati asarida sohaning yuzga yaqin turlari ganchkorlik, naqqoshliq, pichoqchilik, yog'och-o'ymakorligi, savatchilik, gilamchilik, zardo'zlik, zargarlik yo'nalishlari yoritilgan [27]. Uning "Ganchkorlik" "Ganch o'ymakorligi" kabi asarlarida xalq amaliy san'atining ganchkorlik yo'nalishi atroflicha tadqiq qilingan [29].

Undan tashqari S.Bulatov tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ganch o'ymakorligi o'quv dasturi ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi ushbu soha bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan to'garaklar ishiga jiddiy yordam bo'ladi. S.Bulatovning "Ganchkorlik" o'quv qo'llanmasida ganchkorlikni turli jabhalarda, turli to'garaklarda, mustaqil holda o'rganish yuzasidan ma'lumotlar berishga mo'ljallangan bo'lib uning 1-qismida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida ganch o'ymakorligining rivojlanish tarixi yoritilgan. Ganchkorlik san'atidan foydalanilgan tarixiy me'moriy obidalarining tavsifnomalari, zamonaviy binolar tarixi va sharxlari rasmlari, chizmalari bilan berilgan. Qo'llanmaning "Ganch o'ymakorligining rivojlanishi" deb nomlangan qismida O'zbekistonlik ustalarining ganchga ishlov berish bo'yicha mahoratlari, xalq ustalarining ish tajribalari, tarixiy me'morchilik obidalarini yaratish ta'mirlash va zamonaviy binolarni bezashdagi tajribalari yoritilgan [29]. Ushbu metodik ishlanmaning "Ganch va uning hususiyatlari" deb nomlangan 3-qismida ganch mineralining fizikaviy, kimyoviy qurilish homashyosi sifatidagi hususiyatlari bayon etilgan. Ganch homashyosining tabiiy manbalari, harsang toshlari, undan ganch qorishmalari tayyorlash hususiyatlari va boshqalar bayon etilgan [29].

Qo'llanmaning 4-qismida esa ganchdan bevosita me'morchilikda foydalanish, naqshlar chiqarish turlari, o'ymalar tayyorlash usullari keltirib o'tilgan. Muallif ganch o'ymakorligi

naqshlari shajarasi, turlarini ishonarli tarzda bayon eta olgan. Ganch o'ymakorligida foydalaniladigan asboblarning qisqacha tavsifnomalari keltirilgan [26].

"Ganch o'ymakorligi kasbini o'rgatish" deb nomlangan 5-qismda esa ushbu turkumdagi kasblarga o'rgatishning qisqacha tarixi, ganchkorlik to'garaklari ish olib borayotgan muassasalar tavsifi, ulardagi o'quv-tarbiyaviy ishlar mazmuni O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoshlar saroylari, o'quvchilar ijodiy ishlarining shu sohadagi tajribalari umumlashtirilgan. Ushbu metodik ishlanmaning so'ngida ganchkorlik san'atida ko'p qo'llaniladigan so'zlarning lug'ati ham qisqacha keltirilgan.

S.Bulatovning qo'llanmalarida bayon etilgan g'oyalarni tahlil etib, shunga amin bo'ldikki, mazkur tavsiyanoma o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishgan. Ammo, ishlanmaning talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashda metodik bilimlarni o'rgatish, o'qituvchining kasbiy mahoratini, uslubini shakllantirish yo'llarini o'rgatish maqsad qilib olinmaganligi sababli muvafaqiyatli yoritilmagan.

Ganchkorlikni o'rgatish ishlari olib boriladigan to'garak sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning an'anaviy va zamonaviy shakllari tuzilishi, tashkil etilishi, undagi o'quvchilar va o'qituvchi-murabbiylarning foydalanadigan didaktik vositalari, ta'lim mazmuni yuqoridagi ishlanmalarga o'rganish obyekti qilib olinmagan. Ammo talabalarni oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonda, amaliy pedagogik faoliyatga tayyorlashda

turli maqsadlarni ifodalaydigan qo'llanmalarni mutahassislik fanlarini birlashtirib, qayta ishlab, hozirgi zamon talablari asosida yangidan qo'llanmalar yaratish zaruriyati hanuzgacha dolzarb muammoligicha qolmoqda. Q.Qosimovning ko'pgina ishlari halq amaliy san'atining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan naqqoshlikni o'ziga hos hususiyatlarni tadqiq qilishga qaratilgan. U o'zining badiiy naqsh to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi nomli qo'llanmasida naqsh to'garagi, mazmuni va uni o'tkazish metodikasini ishlab chiqdi hamda shu sohadagi to'garaklar ishlarini boshqaruvchilari uchun kerakli qo'llanma yaratdi, Bu amaliy san'at sohasi bo'yicha pedagogika fani nuqtai nazaridan yaratilgan dastlabki jiddiy ishlanma bo'ldi.

Muallif o'z qo'llanmasida naqqoshlikning o'ziga hos hususiyatlari, taraqqiyoti, mashg'ulotlar uchun zarur shart-sharoitlar kichik o'rta va katta guruhlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuni, naqqoshlikni o'rganish, o'rgatish, ishlash mazmuni turli tadbirlarni (sayohatlar va uchrashuvlar) o'tkazish metodikasi bolalarning naqqoshlik faoliyati, naqqoshlik san'ati asarlaridan namunalar berilgan,

Respublikamiz pedagog olimlari tomonidan tasviriy san'at darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni badiiy kasblarga yo'naltirish (A.Turdaliev), tasviriy san'at to'garaklarida o'quvchilarni tasviriy savodhonligi masalasi (A.Vosiqov) va ularni badiiy tarbiyalash (A.Sulaymanov), O'zbekiston hunar-ta'lim bilim yurtlarida milliy badiiy hunarlarga

o'rgatishning didaktik shart-sharoitlari (V.Mazur) kabi muammolarning tadqiq etilishi tasviriy va amaliy san'at ta'limi nazariyasi va amaliyotidagi jiddiy tadqiqotlar davri boshlanganligidan dalolat berdi.

Professor M.Achilov o'zining "Bo'lg'usi o'qituvchilarning ahloqiy shakllanishi" nomli monografiyasida murabbiyning ahloqiy sifatleri butun jamiyatning, hayotiy taraqqiyotning, ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida shakllanishini ko'rsatib o'tadi. Ushbu asarda ahloqiy tarbiyaning nazariy asoslari, o'quv faoliyatida talabalarning axloqiy tarbiyasi, bo'lg'usi o'qituvchilarning o'qishdan tashqari faoliyatdagi ahloqiy tarbiyasi talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga ahloqiy jihatdan tayyorlashning samaradorligini oshirish sharoitlari kabi muhim tomonlari yoritib berilgan. M.Achilovning tadqiqotlarida Oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi pedagoglarni ahloqiy tarbiyalashda odob masalalari muntazam mashg'ulotlar sifatida to'laqonli o'tilmasligi, talabalarni ahloqiy tarbiyalash tizimining yo'qligi, har bir bosqichda ahloqiy tarbiyani amalga oshirish hamda ahloq odob to'g'risida atoqli pedagoglar qarashlari tahlili, o'qituvchi obro'sining o'quv jarayoniga ijobiy ta'siri talabalarning turli xil uyushmalardagi faoliyatlarini ularning ahloqiy shakllanishlariga bo'lgan ta'siri kabi zaruriy omillar batafsil tahlil qilingan, Shuningdek olim oliy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llarini, o'quv dasturlari va darsliklar mazmunini, tuzilishini yangilash zarurligini, rejalashtirishning muhimligini ta'kidlab

o'tgan. Uning hulosalari oliy o'quv yurtlarining Badiiy-grafika fakul'tetlarida to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashda uning axloqiy jihatlariga, hususan ustoz odobi, shogird odobi masalalarini to'g'ri hal etishda o'ziga hos metodologik yo'llanma beradi.

Professor N.Shodievning ilmiy tadqiqotlari ham bizga bir qator hulosalar ishlab chiqishga asos bo'ldi. Hususan uning "Talabalarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish nomli qo'llanmasida kasb tanlash ishining mohiyati, tuzilishi, turli qirralari tahlil etilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ularga kasbiy maslahatlar kasb tanlash ishlaridagi murakkabliklar, bu ishning tuzilishini har bir pedagogning tutgan o'rni, kasbga moslashish hamda talabalarni bu muhim tadbirga tayyorlash, talabalarni o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlash jarayonini boshqarish, talabalarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlashning mazmuni, talabalarni o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashga tayyorlashning shakllari va uslublari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu monografiyada pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni kasb tanlash ishlarini tashkil etishga raxbarlikka tayyorlash tizimi, shu tizimni amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy fanlarning o'rni, psixologik-pedagogik fanlarni o'rganishning ahamiyati, maxsus ilmiy va umumtexnik fanlar guruhlarining o'rni batafsil yoritib berilgan. N.Shodievning qo'llanmasi kasbiy ta'lim tizimini amalga oshirishga bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlashda muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

N.Shodievning o'quvchilarning kasb tanlashlari bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlar nomli monografiyasi ta'lim-tarbiyaning muhim muammosi yoshlarni ma'lum kasblarga tayyorlash ishiga bag'ishlangan. Ushbu monografiyada sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning kasb tanlash ishlarining mazmuni, shakl va uslublari, jumladan, ishlab chiqarish sayohatlar, musobaqalar, kechalar, tajribakorlik ishlarini o'quvchilarning kasb tanlash ishlarini tashkil etishdagi o'rni, shuningdeq maktabdan tashqari muassasalardan yosh tabiatshunoslar, yosh texniklar stantsiyalarining o'quvchilarning kasb tanlashlaridagi roli belgilab berilgan. Ammo ushbu monografiyada ham, yuqoridagilar kabi bevosita tasviriy san'at to'garaklariga bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlash muammolariga murojat etilmagan. Pedagog olim, professor U.Nishonaliev o'zining "Mehnat ta'limi o'qituvchisi shaxsini shakllanishi: kelajagi va muammolari" nomli monografiyasida Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisi shaxsining shakllanishining jiddiy pedagogik muammoligi, mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisi shaxsining shakllanishi tarixi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini ilmiy-metodik asoslari va o'qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligi muammolarini yoritib o'tgan. Monografiyada mazkur soha o'qituvchisining siymosi-kasbiy mahorat kartasi va psixogrammasi keltirib o'tilgan. Bundan tashqarida muallif tomonidan mehnat va kasb ta'limi, umumtexnika fanlari o'qituvchisining kasbiy mahorati kartasida (professiogrammasi) o'qituvchilik kasbiga qo'yilgan umumiy

talablar mahsus talablar o'qituvchiga zaruriy bilimlar, ularning egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalari, o'quv jarayonlar yo'nalishlari keltirib o'tilgan. O'qituvchi psixogrammasida esa mazkur soha o'qituvchisiga zaruriy jismoniy va ruhiy fazilatlar, hususiyatlar, nerv tizimining o'ziga hosligi hamda ma'lum biror operatsiyani bajarilish bosqichlaridagi ruhiy hususiyatlar batafsil tahlil qilingan. Ammo, talabalarning o'quvchilarning hozirgi zamon sharoitida to'garaklardagi faoliyatlarini boshqarishga tayyorlashning zaruriy qirralari ochib berilmagan. N.S.Sayidaxmedov esa talabalarni o'quvchilarning unumli mehnatiga rahbarlikka tayyorlashning o'ziga hos hususiyatlarini, T.R.To'laganov esa bo'lg'usi o'qituvchilarning matematik tayyorgarligini yoritish muammolarini tadqiq qildilar. Yosh olimlardan X.Saribaev o'z ilmiy tadqiqotlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni chizmakashlik ko'nikmalarini takomillashtirish yo'llarini yoritib o'tdi.

Professor R.Hasanovning "O'zbek maktablarida o'quvchilarning badiiy ta'limi va tarbiyasining metodik asoslari" nomli monografiyasi o'quvchilarning badiiy ta'limi va tarbiyasining mohiyati mazmuni, uslublari mahalliy sharoitlarda amalga oshirish shakllari tahlil etilgan. Mazkur monografiyada badiiy ta'limning metodologik asoslari, o'quvchilarning badiiy ta'limida mahalliy va o'lkashunoslik materiallari, an'analar badiiy ta'lim va tarbiya berishni takomillashtirish yo'llari batafsil keltirib o'tilgan.

Ushbu monografiyada badiiy ta'lim va tarbiyaga oid 180 dan ziyod manbalar, dissertatsiyalar o'rganilgan va tahlil qilingan. Badiiy ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda yetakchi mutaxassis hisoblangan rassom pedagogni tayyorlashning ba'zi jihatlari tahlil qilingan. Jumladan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarda quyidagicha ta'riflanadi:

1. O'quv materialini hayot bilan bog'lash va uni o'quvchilar uchun moslashtirib qayta tayyorlay olish;
2. O'quvchilarga muhabbat, qiziqish va ularni tushuna olish;
3. Pedagogik faoliyatda ijodkorlik;
4. Pedagogik talabchanlik o'quvchilar erkinligi uchun sharoit yaratish;
5. Bolalar jamoasini tashkil qila olish;
6. Nutqda yorqinlik aslilik (obrazlilik), mazmunlilik ishonchlilik;
7. Pedagogik mahoratning maromlilik;
8. Bolalar faoliyatini kuzatuvchanligi.

Oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lg'usi o'qituvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlashning turli yo'nalishlari bo'yicha ayrim davlatlarning olimlari turli davrlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Rossiya pedagog olimlaridan A.O.Abdullina bo'lg'usi o'qituvchilar umumpedagogik tayyorgarligining o'ziga hos hususiyatlarini hamda talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlashda pedagogik amaliyotning o'rnini yoritgan bo'lsa, T.F.Korotko va

N.V. Danilovlar talabalarning faoliyatida ularning hayotiy ehtiyojlari masalalari ustida ko'rsatib o'tdilar.

Bo'lg'usi mutahassislarning, jumladan pedagog o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini belgilash oliy ta'lim pedagogikasini, didaktikasini takomillashtirish, umuman, pedagogik jarayonning texnologiyalarini rivojlantirish masalalari V.P.Bespalkoning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Pedagogik nazariyada Ye.K.Belozertsovning o'qituvchini jamiyatdagi yetuk o'rni va ta'lim tizimida yetakchilik vazifalari, Yu.K.Vasilevning bo'lg'usi o'qituvchilarning umumtexnik texnik-tehnologik tayyorgarligi, S.B.Elkanovning o'qituvchilarni kasbiy mahoratini takomillashtirish va o'z-o'zini tarbiyalash, V.G.Zagvyazinskiyning o'qituvchining pedagogik ijodkorligini, S.B.Kraevaning oliy pedagogik oliy o'quv yurtlariga talabalikka qabul qilish qishloq maktabini o'qituvchilar bilan ta'minlashning asosi ekanligi, shuningdek, N.V. Kuzmina, E.I. Kuznetsov, V.T. Lisovskiy, A.V. Dmitriev, A.M. Lipanova, A.P. Lukashnika, Yu.B. Prokudin, V.M. Polonskiy, V.A. Slastenin, A.Sorokin kabilarning ilmiy-tadqiqotlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlash muammolari, oliy pedagogik ta'lim tizimining bir qator dolzarb masalalari tadqiq etilgan.

Umuman olganda turli manbalarni o'rganishimiz, olib borgan kuzatishlarimizning ko'rsatishicha Respublikamizda bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlash qayta tayyorlash, malakasini oshirish sohalarida juda kam monografiyalar, adabiyotlar chop etilmoqda.

Zero bo'lg'usi mutahassislarni, o'qituvchi-pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni zamon talablari asosida mazmunan va shaklan mutlaqo yangilanishi zarur. Biz tadqiqotlarimizni olib borish jarayonida ma'lum bo'ldiki tasviriy san'at ta'limi nazariyasi va metodikasini takomillashtirish bo'yicha T. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining "Tasviriy san'at ta'limi nazariyasi va metodikasi" bo'limi olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bu fanning ko'pgina sohalarini shu bilan birga to'garak ishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

**Oliy o'quv yurtlarida talabalarni ganch o'ymakorligi
to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash pedagogik
muammo sifatida.**

Ta'lim samaradorligini ta'minlashda sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim har doim ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa san'atga oid to'garaklarning pedagogik samarasi beqiyos bo'lib, bu samara quyidagi ikki pedagogik omilni ijobiy hal etilishiga zamin yaratadi;

Birinchisi, tashkiliy-pedagogik omil. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida (1–9-sinflar) tasviriy san'at haftasiga bir soatdan o'qitiladi. Shu bois bu o'quv yuklamasi tasviriy san'at ixlosmandlarining badiiy-estetik ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bu ehtiyojni faqat to'garak sharoitidagina to'laqonli qondirish mumkin. Agar Respublikamiz Oliy va o'rta mahsus o'quv yurtlarida talabalarni to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashni

tashkiliy-pedagogik jihatdan yo'lga qo'yilmaganligini e'tiborga oladigan bo'lsak tadqiq etilayotgan muammo aynan pedagogik muammo ekanligi ayon bo'ladi. Shu bois oliy o'quv yurtlarining Badiiy-grafika fakul'tetlarida talabalardan tasviriy va amaliy san'at to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash muhim tashkiliy-pedagogik muammoning ijobiy hal etilishini ta'minlaydi.

Ikkinchisi, metodologik omil. Tashkiliy-pedagogik omil har qancha ijobiy hal etilmasin, uning metodologik asoslari ishlab chiqilmas ekan, muommo o'zining ijobiy yechimini topishi murakkab. Muammoning metodologik asoslarini hal etishda quyidagi komponentlar e'tiborga olinadi:

➤ Talabalarni tasviriy va amaliy san'at to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashga tanlab olish mezonlarini ishlab chiqish. Zero barcha talaba ham to'garak ishlari uchun yaroqli bo'lavermaydi;

➤ Badiiy-grafika fakultetlarida o'qitiladigan mutahassislik fanlarining mazmuniga talabalarni to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlaydigan o'quv materiallarini kiritishning ilmiy asoslanganligi;

➤ Talabalardan to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlash mazmuni va metodikasini sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim kontseptsiyasi, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim bo'yicha davlat talablariga muvofiqligi;

➤ To'garak ishlarini boshqarishga tayyorlash jarayonining mazmunida halq pedagogikasi, hususan amaliy san'atdan bilim va

malaka olishni bir avloddan ikkinchi avlodga o'tishining sharqona printsiplarini, jumladan, ustoz-shogird an'analarini to'garak ishlarini tashkil etishda sinfdan tashqari ta'lim hususiyatlarini e'tiborga olish;

➤ To'garak mashg'ulotlarini tashkil etishda ularning turlari (rangtasvir va qalamtasvir, haykaltaroshlik, naqqoshliq, yog'och va ganch o'ymakorligi, miniatyura san'ati va h.k.) ni har birini o'ziga hos jihatlari monand ta'lim mazmuni va metodikasiga asoslanish. Zero, to'garak mashg'ulotlarining birqator umumiy jihatlari bilan bir qatorda o'ziga hos jihatlari mavjud. Bu o'ziga hoslik ayniqsa ganch o'ymakorligi bo'yicha tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasida o'z aksini topmog'i lozim.

Oliy o'quv yurtlarida tasviriy va amaliy san'atdan to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashni pedagogik muammo sifatida tadqiq etish o'rgatilayotgan san'at turi, hususan ganch o'ymakorligining ijtimoiy hayotga ehtiyoj sifatida kirib kelishi, shakllanishi, rivojlanishi asrdan-asrga avloddan-avlodga o'tishi, san'at sohasini (ustozni) san'at ihlosmandi (shogird) ga uning sir asrorlarini o'rgatish mazmuni, metodi, printsiplarini tarixiy kontekstda o'rganishni taqozo etadi. Zero, aynan tarixiy-an'anaviy, madaniy va ma'rifiy me'rosning yuzaga kelishi va taraqqiy etish bosqichlari, printsiplarini pedagogik yondashuv asosida o'rganish tadqiqot vazifalarini to'g'ri hal etishga ilmiy-metodik zamin yaratadi, uning ijobiy yechimiga pedagogik kafolat beradi.

Tasviriy va amaliy bezak san'ati, me'morchilik insoniyat jamiyati taraqqiyotining turli davrlarida turli obrazlarda, tasvirlarda namoyon bo'lib asrlar osha yuksak san'at darajasidagi ijodiy mehnat natijasiga aylanib bordi. Shunga hamohang tarzda ularni yaratuvchilarining mahoratlari ham taraqqiy etib borgan. Markaziy Osiyoning tasviriy va amaliy san'atini, me'morchiligi tarixini o'rganish ko'p vaqtdan buyon davom etib kelmoqda, u asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borilgan:

1. Me'morchilik obidalarini va ulardagi bezak namunalari qayd qilish talqin etish;
2. Me'morchilik san'ati namunasi bezagining mazmunini, tasvirining mohiyatini o'rganish [120].
3. Me'morchilik obidalarining bunyod etilishi tarixi hususiyatlarini arheologlar, tarixchilar, san'atshunoslar tomonidan o'rganilishi;

Markaziy Osiyo xalqlari tasviriy va amaliy san'atining o'ziga hosligi, tasvir uslubi mazmuni, yo'nalishlari, yaratilishi bilan boshqa xalqlarning san'atidan ajralib turadi.

Tasviriy san'at real borliqni tasviriy obrazlarda ifodalash san'ati bo'lib, uning rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kabi turlari amaliy san'atning barcha turlari, me'morchilik badiiy loyihalashtirish (dizayn) san'atlari bilan uzviy bog'langan.

Amaliy bezak san'ati tasvirlash san'atining eng qadimiy turlaridan biri hamda u bezatiladigan buyum materiali va unga beriladigan bezak texnikasiga qarab farqlanadi. Amaliy bezak san'ati

buyumlarining badiiyligi shu buyumlarning amaliy funksiyasi bilan bog'liq [149]

Ganch o'ymakorligi, ganchkorlik amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi bo'lib ganchga o'yma naqshlar ishlashdir. U turar joy va boshqa maqsadlarda bunyod etilgan binolarga bezak berishda keng foydalaniladi. O'yma ganchlar asosan binolarning ichki qismidagi devorlari, nomoyon sharafalarni bezashda ishlatiladi, [20]. Ganch o'ymakorligi me'morchilik san'ati bilan chambarchas bog'liq.

Me'morchilik grekcha "arxitektura" so'zidan olingan bo'lib, amaliy san'atining bu turi bino va inshootlarni loyihalash, qurish va bezatish faoliyatini bajaradi [94]. Aynan me'moriy inshootlarning namunalari arxeologiya: tadqiqotlarda kashf etilgan qoldiqlarida xalq amaliy san'atining evolyutsion jarayoni insonning badiiy tafakkuri, ijod salohiyatini kuzatish mumkin.

Ijodkorlik insonning badiiy faoliyatining oliy shakli bo'lib, uning qiymati har bir davr uchun yangiligi va ijtimoiy mohiyati bilan o'lchanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tasviriy va amaliy san'ati juda qadimiy madaniy davrlar asosida dunyoga kelgan. Zamon bobo madaniyati (Buxoro), Suvyorgan (Qoraqalpog'iston), Chust (Namangan), Andijon, Oqtepa, Nomozgoh, Ashurobod (Xorazm), Teshiktosh, Sopolli tepa Dalvarzintepa, Kuchuktepa (Surxondaryo), Oqtom, Yoztepa, Obmishir (Farg'ona) Afrosiyob, Omonqo'ton Darg'am (Samarkand), Bo'z-suv, Oqtosh, Obirahmat

(Toshkent), Uchtut, Karmana (Navoiy) va boshqa makonlardan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolarni o'rganishdan olingan ilmiy hulosalar Markaziy Osiyoda juda qadimdan ongli hayot mavjud ekanligidan dalolat beradi. Tasviriy va amaliy san'atning dastlabki namunalarida mehnat jarayoni, tabiat, hayvonot olamining tasvirlari ibtidoiy san'at ko'rinishida-primitiv holda tasvirlanib, ular takomillashib, taraqqiy etib, yovuz kuchlarni, ilohiy kulfatlarni, kutilmagan baxtsizliklarni tasvirlashga o'tgan, Shu tariqa tasvirlar badiiylashib borgan. Uning tarmoqlari rivojlanib maishiy buyumlar, turar joylarga stilizatsiyalashtirilgan shartli shakllar ko'rinishida amaliy san'at namunalari shakllanib, rivojlanib borgan. Tabiiyki bu rivojlanishning pedagogik jihatlari ham ya'ni kasb mahoratini avloddan-avlodga o'tishi o'tganda ham yangi mazmun, metodika bilan boyib rivojlanib borgan. Shu tariqa bugungi amaliy san'at ta'limining asosiy printsiplaridan biri ustoz-shogird an'analari tarkib topgan.

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonning bezak san'ati tarixini tadqiq etar ekan, san'atshunos olim L.I.Rempel tasviriy va amaliy san'at chiziqli va to'rsimon burchakli uchburchaq to'rtburchak ko'pburchak simmetrik va assimetrik rombsimon va boshqacha shakllardagi tasvirlarda amalga oshira boshlagan. Aylanma shaklli kompozitsiya markazli, markaz o'qli, xordali doirasi yon bezakli markazga intiluvchi, markazdan qochuvchi shaklli bezaklar yasash usullari taraqqiy etganligini ta'kidlaydi. Olimning ta'kidlashicha naqshlar yasashda ular chizmalar va

shakllarga bo'lingan, chizmalar esa motivlarga asoslangan, tasvirlarga esa elementlar ajratilgan. Elementlar tugallanmagan va tugallangan naqshlarga birlashtirilgan [120].

Xalq amaliy san'atining turli millat va elatlarga hos bo'lgan xususiyatlari bir-biriga qorishib ketganligi ham bir qator tarixiy omillarga asoslanadi.

Xalqlarning kuchayib borishi, ko'chmanchi xalqlarning o'trohlashishi, o'zaro urushlar tufayli xalqlarning bir-biriga aralashishi tufayli turli madaniyatlarning bir-biriga mazmunan uyg'unlashuviga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa bir xalqning turmush tarzi madaniyati va san'ati boshqa bir holatda kirib borgan. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Aleksandr Makedonskiyning yurishlari eramizdan avvalgi VI asrda Ahmoniylar podshohi Kir Qayxisravning Osiyoga yurishi, Salavkiylar (eramizdan avvalgi IV-III asrlar) Yunon-Baktriya (er.av. II-I asrlar), Toharlar davlati (er.av. II-I asrlar), Qang'a (Kajut) (er.av. II asr), Xitoy davlatlari (er.av. I asrlar), Kushon podsholigi (eramizning I-IV asrlar), Afrig'iylar (II-III asrlar) Eftalitlar (III-V asrlar) Turk xoqonligi (IV-V asr), Arablar istilosi (VI-VII asrlar), Buxorxudotlar (VI-X asrlar), Abbosiylar (VII-X asrlar), Samoniylar (VIII-XII asrlar) G'aznaviylar (X-XII asrlar), Saljuqiylar (VIII-XII asrlar), Xorazm-shohlar sulolalari (X-XII asrlar) Mo'g'ullar (Chingizxon) bosqini (XII-XIII asrlar), Amur Temur va temuriylar sulolasi (XIII-XV asrlar), Boburiylar hukumronligi (XV-XVIII asrlar) va boshqa ko'plab tarixiy

voqealarda turli xalqlar urf-odatlari, madaniyatlari, san'atlari bir-biriga aralashib, boyib takomillashib bordi.

Hozirgi O'zbekiston hududi san'atiga harbiy yurishlar va o'zoro urushlar tufayli yunon, sak massagetlar, tog'li oltoyliklar, rus, hind-xitoy, eron, arab, kavkaz xalqlarining madaniyati va san'ati, ularning uslublari Markaziy Osiyoning, xususan O'zbekistonning tasviriy va amaliy san'atida, me'morchiligida o'z ta'sirini qoldirdi. Masalan, Pazariq madaniyatida, Tuproqal'adan topilgan buyumlarda ko'chmanchi halqlar gilam, chavandozlar otlar tasvirlari, turli oltoy uslubida doira, yarim doira oy-simon o'roq, yarim yoy, shar shaklli, sharsimon shakllar, haykallarsimon shakllar, sak-massagetlar tasvir uslublari to'g'ri chiziqli, egri-bugri chiziqli ayqash rombli shakllar, spiralsimon tutashmalar, yuraksimon va yulduzchasimon shakllar, ko'chmanchi xalqlar madaniyati qo'ylar, jingalak shohlar, yovvoyi yirtqich hayvonlar shakllari, eron-yunon, grek madaniyatidan palma va nilufar (lotos) shakllari olti burchakli, sakkiz burchakli, xitoy, usuli, mo'g'ul xalqlaridan she'r, yo'lbars tasvirlari, yovvoyi hayvonlarning ov qilinishi tasvirlari kirib kelgan. Bu shakllarning barchasi zamonaviy amaliy san'atimizda stilizatsiyalashtirilgan shaklda uchraydi. Oliy o'quv yurtlarining Badiiy-grafika fakulteti talabalaridan amaliy san'at to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning mazmunida, ayniqsa tarixiy-nazariy va amaliy-ijodiy mashg'ulotlarda bu omillar diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning pedagogik mezonlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy va amaliy san'at mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishida, bolalarning estetik didlari hamda tasvirlay olish qobiliyatlarining rivojlanishida shu fanni o'qitadigan o'qituvchi bosh rolni boshqaruvchilik va ijrochilik vazifasini bajaradi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi faqatgina shu sohaga boshqaruvchilik qilibgina qolmay, balki o'zi ham shu jarayonni tashkil etishda kasbiy jihatdan shakllanib boradi. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy mahorati, zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi, o'zi boshqaruvchilik qiladigan, tashkil etadigan, o'zi o'qitadigan fanning hususiyatlaridan, o'ziga hosligidan kelib chiqadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanining maqsadi bolalarda ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan badiiy madaniyatni shakllantirish, ularda tasviriy-ijodiy savodhonlik va badiiy-estetik tafakkurni shakllantirishdan iboratdir.

Bu o'quv fanining vazifalari uning maqsadidan kelib chiqadi va turli sinflarda bosqichma-bosqich quyidagicha amalga oshiriladi;

- O'quvchilarni borliqdagi, tabiatda va jamiyatdagi, insonlardagi go'zalliklarni ko'ra bilishga, sezishga o'rgatib borish;

➤ Bolalarda badiiy, ijodiy qobiliyatlarni, estetik didni ularning hotirasini, rang sezishini, fazoviy tasavvurini, kuzatuvchanligini chamalash, mo'ljallash qobiliyatlarini rivojlantirish;

➤ Bolalarda tasviriy olish, chiza olish badiiy, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va o'stirib borish;

➤ Tasviriy san'atning, badiiy, amaliy bezak san'atining, haykaltaroshlik va me'morchilikning o'ziga hos tasviriy tilini, uslublarini egallashlarini takomillashtirish;

➤ Bolalarda tasviriy-ijodiy jarayonga, san'at kishilariga, ular yaratgan buyumlarga umuman ularning ijodiy mahsullariga, kasblariga qiziqishlarini va ularga bo'lgan hurmat hissini targ'ib qilish.

Bu vazifalarning mukammalrog'i, murakkabrog'i to'garak sharoitida hal etiladi. To'garak mashg'ulotlarini 1–7-sinflardagi tasviriy san'at darslarining o'quv-tarbiyaviy vazifalaridan tashqari o'ziga hos vazifalari ham mavjud bo'lib, ular darslardan farqli o'laroq nisbatan professional yo'nalishga yo'llanma berishni ham nazarda tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalardagi ganch o'ymakorligi to'garagi san'atga ixtisoslashgan to'garaklarga oid ta'limiy vazifalar bilan bir qatorda bevosita shu san'at turiga hos vazifalarni ham hal etadi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat: to'garak mashg'ulotlarining maqsad va vazifalarini to'g'ri belgilash, ularni bajarish uchun

to'garak mashg'ulotlari mazmuni va metodikasining optimal variantini ishlab chiqish shu masalaning pedagogik asoslariga kiruvchi eng muhim jihatlardan biridir. Bu ishni amalga oshiruvchi bosh ijrochi to'garak ishlarini boshqaruvchisini tayyorlashning pedagogik asoslarining asosiy komponentlaridan biri esa bo'lajak to'garak ishlarini boshqaruvchisini tanlab olish mezonidir, Zero bo'lajak to'garak ishlarini boshqaruvchilarini to'g'ri tanlash istiqboldagi ishlarning pedagogik samarasini kafolatlaydi.

Sharq pedagogikasida, ayniqsa uning madaniyat va san'atdagi vorisiylik jabhasida irsiy hususiyatning muhimligi ta'kidlab o'tilgan.

Ikkinchidan, ota qilgan kasb o'g'il uchun yoshligidan tanish, u bu kasbning bir qator nozik jihatlari tabiiy tarzda o'zlashtirib borgan. Qolaversa aynan ota kasbi bo'lgan ixtisoslikni egallash o'g'il uchun bir qator qulayliklarga ega. Bu qulaylik avvalo moddiy-texnik baza, lozim sharoit va qulayliklar, shakllangan an'ana, amaliyotda sinalgan metod va yondoshuvlar mavjudligi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham Badiiy-grafika fakulteti talabalaridan ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashga tanlab olishda shu mezonga amal qilish pedagogik fiziologik va psixologik jihatdan to'g'ri yondashuv bo'ladi.

Ijtimoiy-hududiy hususiyat oliy ta'lim tizimida malakali mutaxassislar tayyorlashni rejalashtirishning samarali, maqsadli, iqtisodiy yechimini ta'minlaydi. Chunki, muhandis lozim bo'lgan joyga me'mor, shifokor lozim bo'lgan joyga o'qituvchi tayyorlab

jo'natishdan hech qanday naf yo'q. Aksincha, u davlat miqyosidagi nomutanosiblik sifatida talqin etiladi. Shuning uchun Badiiy-grafika fakulteti talabalaridan ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tanlab olishdan mahalliy sharoit mahalliy - ijtimoiy buyurtma, e'htiyojini hisobga olish lozim. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi, to'garak ishlarini boshqaruvchisi mutaxassislikni egallagandan so'ng borib ishlaydigan joyda, misol uchun ganch o'ymakorligiga tabiiy ijtimoiy buyurtma, ehtiyoj bo'lmasa, bu mutaxassisni tayorlash uchun sarflangan mablag' noratsional o'zlashtirilgan bo'ladi.

Shaxsiy hususiyatni e'tiborga olish uchun birinchi bandda zikr etilgan hususiyatni inkor etmagan holda qobiliyatli, ayrim hollarda qiziquvchan va intiluvchan talabalar biror bir faoliyat turiga moyilligini namoyon etadi. Ganch o'ymakorligi bilan bog'liq bo'lgan ijodiy jarayon ham bundan mustasno emas. Aynan biror bir faoliyat turiga qiziqish namoyon etayotgan o'quvchidan, talabadan shu faoliyat turi bo'yicha malakali mutaxassis tayyorlash har tomonlama qulay va pirovard natijada ijobiy, samarali yakun topadi. Badiiy grafika fakulteti talabalaridan ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning pedagogik asoslarining yana bir muhim komponenti shundan iboratki, yuqorida sanab o'tilgan uch kategoriya hususiyatlar mezonlarga mansub talabalar guruhining har birini o'ziga hos ta'lim mazmuni va metodikasi tanlanadi. Chunki bir guruhga mansub talabalar uchun tavsiya etilayotgan ta'lim mazmuni ikkinchi guruh; uchun

murakkablik qilishi, aksincha, ikkinchi (uchunchi va h.z.) guruh uchun optimal hisoblangan ta'lim mazmuni, uning hajmi va metodikasi birinchi guruhga mansub talabalar uchun aytarli, ayrim hollarda mutlaqo qizikish uyg'otmasligi mumkin.

O'rganilayotgan muammoni pedagogik asoslarining yana bir jihati shundan iboratki, har bir guruh uchun o'ziga hos ta'lim mazmuni va metodikasi bo'lsada, ularning barchasi qat'iy rioya qilishi lozim bo'lgan talab va yondashuvlar mavjud. Bu talablar oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, sinfdan va maktabdan tashqari ta'limning davlat talablari, uzluksiz ta'limning har bir bo'g'ini uchun joriy etilgan dasturlar va ularning o'quv-tarbiyaviy maqsadi, vazifalarini bajarishga qaratilishi lozim. Aks holda Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimidagi uzviylik uzluksizlik ta'minlanmaydi.

Talabalarni tasviriy va amaliy san'atdan to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashning pedagogik asoslarini tashkil etuvchi eng muhim jihati ta'lim mazmunini to'g'ri belgilashni ta'minlaydigan o'quv materiallarini tanlab olish mezonlarini ishlab chikish, ularni to'g'ri tanlay olishdir. O'quv materialini tanlab olishda quyidagi ko'rsatilgan mezonlarga asoslaniladi (2 chizma);

➤ Tanlab olinadigan material oliy ta'lim davlat ta'lim standartiga mos bo'lishi lozim. Zero oliy ta'limning har bir bosqichi (bakalavriat, magistratura) uchun xos va majburiy bo'lgan o'quv materialiga qo'shimcha tarzda ta'lim mazmuniga kiritiladigan materiallar oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash

mazmunini boyitishi, ya'ni kadr tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilmog'i lozim. Ayni paytda oliy ta'limning tibiiy va fiziologik nuqtai nazaridan belgilangan maksimal yuklamasi doirasidan chiqmasligi kerak;

➤ Tanlab oladigan material umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlariga mutanosib bo'lishi lozim. Bu tasviriy va amaliy san'at to'garagi ishlarini boshqarishini o'zi faoliyat ko'rsatadigan ta'lim muassasasi uchun belgilangan davlat ta'lim standartini amalga oshirishga sharoit yaratadi;

➤ Ta'lim mazmuniga qo'shimcha tatbiq etiladigan o'quv materialli oliy ta'limning o'ziga hos o'quv-tarbiyaviy vazifalarini bajarilishini ta'minlashiga salbiy ta'sir etmasligi lozim. Ayni paytda ta'lim mazmuni, to'garak ishlari bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari akademik litsey va kasb -hunar kollejlarida olib borilishi lozim.

Ta'lim mazmunini aniqlash mezonlariga monand tarzda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilaridan ganch o'ymakorligi to'garagi ishlariga tayyorlash masalasi bevosita to'garaklar mashg'ulotlari mazmunini belgilash mezonlarini ham inobatga olishni ta'qozo qiladi. Zero to'garak ishlarini boshqaruvchisi to'garak qatnashchilarining muayyan guruhi, ayrim holatlarda alohida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida to'garak mashg'ulotlarining mazmuniga qo'yiladigan ta-lablarni, uni belgilashning asosiy mezonlarini bilishi talab etiladi. Bu borada

A.Sulaymonovning [135] "Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ta'lim mazmuni va metodikasi" mavzusidagi tadqiqotida ishlab chiqilgan mezonlarga asoslanildi. Tadqiqotimizda uning asosiy yo'nalishlari ganch o'ymakorligi to'garaklariga moslashtirilgan holda qo'llanildi. Bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. To'garak qatnashchilariga beriladigan bilimlar ularning bo'lajak professional faoliyatlari uchun yetarli zamin yaratmog'i lozim, ya'ni tasviriy san'atdan beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalar o'quvchilarning badiiy-ijodiy faoliyatlari uchun tayyorlab borish lozim.

2. Tavsiya etilayotgan barcha o'quv materiallari ilmiy asoslangan bo'lishi talab etiladi, ya'ni har bir o'quv topshirig'i ganch o'ymakorligi san'atining biror bir jihatini ilmiylikka asoslangan holda tushuntirishga asoslanishi lozim. Misol uchun, ganch kompozitsiyasining u yoki bu shakldagi namunalarini yaratish kompozitsiya, chizmachilik, geometriya kabi sohalarning bir qator qonuniyatlari asosida yaratiladi.

3. Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ta'lim mazmuni ayrim o'quvchilarni professional faoliyatga yo'llagan holda barcha o'quvchilarda ma'naviyat va madaniyatga doimiy ehtiyojni tarbiyalashga qaratilishi, bunda o'quvchilarni mustaqil bilim olishga undovchi materiallar asosiy mazmunni tashkil etilishi darkor.

4. Tanlab olinayotgan o'quv materiallari maksimal tarbiyaviy va ta'limiy samara berishi lozim. Buning uchun bir qator

psixologiq fiziologik va didaktik komponentlar hisobga olinishi kerak. Eng asosiysi, barcha o'quv materiallari o'quvchilarning yoshlariga mos bo'lishi bilan birga ularda bu materiallarni o'zlashtirish o'ziga hos qiziqish va ko'nikish hosil qilishi lozim.

5. To'garak mashg'ulotlari uchun o'quv materiallarini tanlab olishda o'quvchilarning rivojlanish bosqichlaridagi fiziologik va psixologik darajalarga asoslanishi shart. Ularning yoshi, tayyorgarlik darajasiga mos bo'lmagan og'ir o'quv materiali o'zlashtirilmasligi evaziga bu turdagi mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishini susaytiradi, ulardagi o'z kuchiga ishonch hissini pasaytiradi, pirovard natijada ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Aksincha, ularning rivojlanganlik darajasidan past bo'lgan haddan ziyod yengil materiallar, o'quv topshiriqlar ham ularda qiziqishni pasaytiradi, har bir yangi mavzu o'quvchiga ma'lum darajada yangi ma'lumot berishi lozim, hullas o'quv materiali o'quvchilarning umumiy rivojlanganlik darajalari, badiiy-intellektual bilimlarining ko'lami tasviriy-ijodiy layoqatlari, imkoniyatlari, qiziqish va intilishlariga mosligi e'tiborga olinadi.

6. O'quv topshiriqlarini bajarish jarayonini turli badiiy material va texnikani qo'llashga mosligi. Qo'llanilayotgan materiallarning turli-tumanligi birinchidan, mashg'ulotlarni qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, o'quvchilarga turli texnikani tasviriy usullari va texnologik jarayonlarini o'zlashtirib borishga imkon beradi.

7. O'quv materiallarini real borliq, maishiy turmush bilan

bog'liqligini e'tiborga olgan holda tanlab olish.

8. O'rganilayotgan o'quv materiallarini ham moddiy, ham ma'naviy boylik sifatida talqin etish imkonini berish. Ayrim sohadagi namunalardan farqli o'laroq ganch o'ymakorligi namunalari moddiy-ma'naviy qiymatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. To'garak mashg'ulotlaridagi o'quv materiallari shu jihatni tushuntirib berishga xizmat qilmog'i lozim,

9. To'garak mashg'ulotlari mazmuniga kiritilgan o'quv materiallari talabalarning, o'quvchilarning ma'naviy kamolotga pedagogik zamin yaratish, ya'ni o'zlashtirilayotgan materialni har bir individning o'z shaxsiy ma'naviy rivojida muhim ahamiyatga ega ekanligini har bir bola ongli tarzda his etishiga undashi lozim.

10. Ganch o'ymakorligida to'garak qatnashchilariga beriladigan bilimlar, tarkib toptiriladigan malaka va ko'nikmalar, odatda hatti-harakat me'yorlari shunday bo'lishi lozimki, toki ular bolalarni amaliy san'at sohasida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga tayyorlansin. Bu tayyorgarlik o'quvchi yoshlarni jamiyatning ijtimoiy siyosiy, madaniy hayotda faol ishtirok etishga undaydi.

11. Ganch o'ymakorligi to'garagi mashg'ulotlarida beriladigan ta'lim talabalarni, o'quvchilarni keyingi bosqichlarda o'tilishini davom ettirishlari uchun yetarli bilimlar bilan ta'minlashi lozim.

12. Ta'lim mazmunidan o'rin olgan o'quv materiali talabalarning, o'quvchilarning tarbiyaviy kamolotini ham ma'lum darajada kafolatlamog'i lozim, ganch o'ymakorligi tarixi haqidagi

materiallar talabalarning, o'quvchilarning Vatan tarixi haqidagi bilimlarini takomillashtirish bilan bir qatorda ularda ona yurtga, uning san'atiga mehr-muhabbat, iftihar hissini ham tarbiyalab borishi lozim.

To'garak mashg'ulotlarining mazmuni va vazifalari umumiy o'rta ta'limning umumiy o'quv-tarbiyaviy vazifalarining mantiqiy davomi, takomillashtiruvchi buguni bo'lishi hamda to'garak mashg'ulotlarini tashkiliy jihatlarini, hukumat qarorlariga rioya qilgan holda tashkil etish.

13. Ta'limning asosiy didaktik printsiplari (ilmiylik ketma-ketlik tushunarliklik ko'rgazmalilik va h.z.) dan tashqari aynan amaliy san'atda o'ziga hos mohiyatga ega bo'lgan printsiplar ham e'tiborga olinishi talab etiladi. Shu bois ganch o'ymakorligi to'garagida o'quvchilarni 1-7 sinflarda halq amaliy san'ati bo'yicha egallanadigan nazariy bilim amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni egallanadigan bilimlarini uzviyligi, uzluksizligi, ta'lim mazmunini belgilashning bosh printsiplaridan biri bo'ladi. Misol uchun 7-sinfni bitirgan o'quvchi halq amaliy san'ati turlaridan naqqoshlik va ganchkorlik elementlarini bilishi, naqshlarni tushuna bilishi girix, islami, aralash naqsh turlarini ularning elementlarini farqlay olishi, turli shakllarda (yo'l ichida, kvadratda, to'g'ri to'rtburchakda, aylanada) naqsh kompozitsiyalarini hosil qilishni o'rgansalar, 8-9- sinf o'quvchilarining xalq amaliy bezak san'atini o'rganishlarida bilim ko'nikma va malakalariga murakkabroq bo'lgan quyidagi talablar

qo'yiladi:

➤ Xalq amaliy san'atining o'ziga hos milliy, mahalliy hususiyatlarini bilish (Namangan, Chust Rishton, Farg'ona, Ko'qon, Andijon, Toshkent, Jizzax, Samarkand, Buxoro, O'rganch, Xiva, Nukus), halq amaliy bezak san'ati ustalarining maktablari, usullari, yo'llari bilan tanish bo'lish, o'zlari yasayotgan buyumlarda san'at asarlariga hos elementar jihatlar amaliy san'at maktabi yo'llarining aks ettirishiga erishish;

➤ Turli materiallarga yoki materiallarning biror turiga (yog'och, metall, metallmaslar, plastmassalar, gazlamalar, ganch, suyak, tosh, teri, shisha kabilar)ga badiiy ishlov berish texnologiya va texnikasini bu sohada qo'llanib kelinayotgan an'analarni; badiiy loyihalash, tuzish qurish ishlarining asosiy printsiplarini, vazifalarini (ergonomik ekologik dizayn, funktsional (ish bajarish), texnikaviy, estetik va chiqindisiz texnologiyali va boshqalarni); amaliy bezak san'atida kompozitsiyalar turlari (yalpi, hajmli, chuqurlikdagi va fazoviy, chiziqli) va buyumlarni loyihalash asoslarini; badiiy va tasviriy, amaliy bezak san'atining mahsus vositalari hususiyatlarini (ritm, teng tomonlilik kontrast, o'lchamlilik va boshqalar); ranglarning hususiyatlarini, tonlarini, axromatik va xromatik qatorlar, rangshunoslikning nisbatan murakkab qonuniyatlari haqida va ulardan foydalanish yo'llari to'g'risida nazariy bilimga ega bo'lish va ularni amalda qo'llay olish;

- buyumlarni, san'at asarlarini usta rahbarligida va guruhli

holda, hamda mustaqil tayyorlay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- materiallarning fizikaviy, kimyoviy texnologik va bezakli hossalarni bilish va o'z o'rnida foydalana olish, badiiy ishlov berishda ana shu hossalarni hisobga olish;

- tayyorlangan buyumlarga turli hil pardoqlash va bezak ishlovlarini bera olish (jilvirlash, silliqdash, bo'yash, loklash, yaltiratish chirishdan saqlash usullari, xromlash, sirlash, nikellash va boshqalar);

- tayyorlangan buyumlarni iste'molchiga yetkazish, ko'rgazma va reklama qilish, hujjatlarni, hisob-kitoblarni yurg'izish.

- Tasviriy va amaliy san'atdan to'garak ishlarini boshqaruvchisi mashg'ulotlarni o'tkazishda boshqa turdagi, mazmundagi mashg'ulotlarni o'tkazishga ham tayyor bo'lishi lozim. SHu san'at turlaridan tashkil etiladigan turli o'quv-tarbiyaviy tadbirlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- to'garaklar, muzeylarga tabiatga, halq ustasi yoki rassom ustaxonasiga sayohatlar, turli ijodiy topshiriqlarni yakka yoki guruh bo'lib bajarish, masalan shiorlar yozish, bezash-tuzash ishlari va boshqalar;

- to'garakka qatnashish imkoniyati bo'lmagan o'quvchilarga mustaqil bilim olish va kasb o'rganishlariga yo'l ko'rsatish, metodik yo'llanma berish;

- sohaga oid adabiyotlar, manbalar, san'at asarlarini mustaqil o'rganish;

- yakka tartibda turli hildagi sovdo buyurtmalarni bajarish;

- bog'chalarga, jamoat binolariga bezash ishlarini bajarish orqali yordam berish kabilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan to'garaklarni shartli ravishda quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- 1) Modellashtirish;
- 2) Xavaskorlik texnikaviy sport turidagi ya'ni narsa, buyum, qurilmalarning harakatchan nushalarini yasash;
- 3) Yosh, mohir mutaxassislar;
- 4) Tasviriy va amaliy san'at turkumidagi to'garaklar.

Birinchi guruhdagi to'garaklarda bolalar turli buyumlarning, narsalar ko'rinishlarining kichaytirilgan nusxalarini, modellarini yasaydilar, samolyotlar modellarini yasash aviamodelchilik avtomobillar modellarini yasash avtomodelchilik kabilar.

Ikkinchi guruhdagi to'garaklarda bolalar turli mexanizmlarning, qurilmalarning harakatchan nushalarini yasaydilar, ishlatib ko'rib, sifatiga qarab o'zlari yaratgan qurilmalarning ijodiylik darajalarini, originalligini, yangiligini, xalq xo'jaligidagi ahamiyatini belgilaydilar. Turli xil rasmlarga fotoapparatlar yordamida tushirish, manzaralar, odamlar, ish jarayonlari, personajlar, lavhalar va boshqalarni ishlash bo'yicha foto havaskorlik to'garaklari bo'lishi mumkin.

Uchinchi guruh to'garaklariga o'quvchilarning o'zlari sevgan sovg'alari, turli kasblar, ota-bobolari kasb sulolalarini davom ettirishni o'rganishga bag'ishlangan to'garaklardir. Bunday to'garaklar jumlasiga yosh rassomlar, bo'lg'usi rassomlarni

tarbiyalovchi, yosh haykaltaroshlar yosh tikuvchilar, yosh to'quvchilar, yosh havaskorlar, yosh sozandalar va boshqalar kirishi mumkin.

To'rtinchi mahsus yo'nalishdagi to'garaklarga tasviriy va amaliy san'atning turli sohalari bo'yicha naqqoshliq rangtasvir, mozaika, haykaltaroshlik kulolchilik ganch o'ymakorligi, materiallarga o'ymakorlik ishlovi berish va boshqa shu yo'nalishdagi to'garaklar kiradi. Bu turkum to'garaklarida bolalar o'zlariziqiqqan soha bo'yicha ko'nikma va malakalarni olishni istagan holda birlashib badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ladilar. Albatta, o'quvchilarning ushbu to'garaklardagi faoliyatlarini tashkil etishda o'qituvchi bosh-qosh bo'ladi. Tasviriy san'atning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan amaliy bezak san'atining o'ziga hos turi bo'lgan ganch o'ymakorligini bolalar shu turkum to'garaklarida chuqurroq va nisbatan kengroq o'rganishlari mumkin.

Badiiy-grafika fakul'teti talabalaridan to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlash, mutaxassis tayyorlashning ham o'zining bir qator pedagogik shartlari, pedagogik asoslari mavjud. Bu shart birinchi galda o'qituvchining (to'garak ishlari bo'ishqaruvchisining) professional mahorati tanlangan sohani, mutaxassislikni, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, san'atshunoslik amaliy san'at tarixi kabi sohaning asosiy pedagogik komponentlarini puxta egallaganligiga bog'liq.

“Tasviriy san'at o'qituvchisi boshqa fanlar o'qituvchilari kabi

birinchi galda eng yuksak fazilatli ahloqiy pok iymon va e'tiqodli halol va sofdil, bolalarga nisbatan mehribon, o'zbek xalqining urf-odatlari, an'analarini yaxshi biladigan shaxs bo'lishi kerak" [17]. O'quvchilarning badiiy jihatdan mustahkam bilimli bo'lishida o'qituvchilarning badiiy savodxonligi muhim ahamiyatga ega [152].

Tasviriy san'at o'qituvchisining o'z sohasi bo'yicha pedagogik kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishi avvalo uning bajaradigan vazifalarida, hal etadigan muammolarida, o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlarida, ularda shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarida nomoyon bo'ladi.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida hal etadigan vazifalari quyidagi uch hil ko'lamda bo'lishi mumkin

1. Respublikamizning mustaqqilligi munosabati bilan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, hududiy va mahalliy hususiyatlaridan kelib chiqadigan umumiy vazifalari.

2. Ta'lim-tarbiya sohasini pedagogika, psixologiya va didaktikada kechayotgan islohotlardan kelib chiqadigan umumpedagogik va tarbiyachilik vazifalari.

3. Tasviriy va amaliy san'atning turli sohalarini me'morchilik rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik fotografiya sur'atga olish miniatyura va boshqalarning milliy ruhda yangilanishidan kelib chiqadigan hususiy vazifalar.

Tasviriy san'at o'qituvchisi boshqa predmet o'qituvchilari

singari siyosiy-mafkuraviy, ma'naviy, madaniy-ma'rifiy ishlarni, ya'ni jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va h.k. o'zgarishlarni targ'ib qilishda, hukumatimiz qarorlari mazmunini xalqga yetkazishda yetakchi figura hisoblanadi. Bu uning birinchi guruh vazifalariga kiradi. Ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar mamlakatimizda yakka firqa hukmronligi yo'qotilib ko'p firqalikning vujudga kelishi, Prezidentlik boshqaruvini shakllanishi, iqtisodiy sohada bozor iqtisodiyotining yuzaga kelishi, davlat reja, majburiyat, ishlab chiqarish tizimidan haridorbop, tez sotiladigan, raqobatbardosh, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tilishi, hususiy va shaxsiy mulkchilikning yuzaga kelishi, firmalar, kontsernlar, assotsiatsiyalar, yakka ishlab chiqarish tsexlari, xususiy, qo'shma, kichik korxonalarining shakllanishi kabilarni tushinishi va tushuntirish o'qituvchining ijtimoiy vazifalari hisoblanadi. Ma'naviy va milliy merosimizni, og'zaki, yozma, amaliy qadriyatlarimizni, ijodiy boyliklarimizni, tariximizni, buyuk mutafakkirlarimizni, sarkardalarimizni, halqimizning o'tmishini yoritish birinchi galdagi vazifalardan hisoblanadi, To'garak ishlarini boshqarish, ayniqsa ganch o'ymakorligi to'garagi ishlari boshqaruvchisi professional faoliyat bilan birga yuqoridagi jihatlarni e'tiborga olib borishi lozim. Zero, bu san'at turi bo'yicha faoliyat tovar ishlab chikarishga, ma'naviy boylikni moddiy ne'mat sifatida baholashga aloqador sohadir.

Jamiyatda ro'y berayotgan turli o'zgarishlar, ta'lim-tarbiya sohasida, fanning turli sohalarida, pedagogikada, psixologiyada,

didaktikada va hususiy fanlarni o'qitish metodikasida ham turli islohotlar o'tkazishni taqozo etadi.

Tarbiya maqsadining o'zgarishi, ta'lim tizimiga yangi fanlarning kirib kelishi, tasviriy san'at o'qituvchisidan ham ikki turkumdagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi,

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga, mazkur fanda beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning Davlat ta'lim standarti bilan belgilanishi tasviriy san'at o'qituvchisidan ham o'z kasbiy mahoratini takomillashtirib borishni talab qiladi

IKKINCHI BO'LIM

TALABALARNI GANCH O'YMAKORLIGI

TO'GARAGI ISHLARINI BOSHQARISHGA

TAYYORLASHNING MAZMUNI VA METODIKASI

Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning mazmuni va metodikasini aniqlash

O'quvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik sifati, darajasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlarning samarasini belgilovchi asosiy omildir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarining yuqori saviyada tashkil etilishida, o'quvchilarning ushbu san'at sohalarini o'rganishlarida uning sir-asrorlaridan bohabar bo'lishlarida, jumladan, ganch o'ymakorligi mo'jizalarini egallashlarida ta'lim mazmuni va metodikasi, mazkur soha o'qituvchisining pedagogik

metodik va maxsus tayyorgarlik darajasi muhim o'rin tutadi.

Bizning olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz bo'yicha o'tkazgan tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlilidan ma'lum bo'ldiki, ta'lim jarayonini tashkil etishda, jumladan, amaliy san'at, ganch o'ymakorligining sirlarini o'rganishda tasviriy san'at o'qituvchisining mohir rassom, ganchkor usta bo'lishi bilan bir qatorda, uni metodik mahoratga ega bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining va to'garak ishlarini boshqaruvchisining kasbiy tayyorgarligi darajasi, amaldagi ahvolning tahlili bo'yicha Badiiy-grafika fakulteti talabalaridan amaliy san'at to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning mazmuni va metodikasini aniqlash imkonini berdi.

O'qituvchi talabalarni tasviriy san'at va to'garak ishlarini boshqaruvchisining kasbiy tayyorgarligi davrida oliy o'quv yurtlaridagi 4-5 yillik o'quv-tarbiyaviy kursda 120 ga yaqin o'quv fanlari, auditoriya va auditoriyadan tashqari tadbirlar, o'quv kurslari, mahsus fanlar, sinov dasturlari va boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi quyidagi yo'nalishlardagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi;

1. Talabalarning mafkuraviy tayyorgarligining asosiy o'zagini ta'minlovchi fanlarga, falsafa, mantiq, tarix, jamiyatshunoslik madaniyatshunoslik huquqshunoslik estetika,

etika va boshqalar kiradi (1-ilova, 1-qism).

2. Pedagogik psixologik metodik tayyorgarlikni ta'minlashning asosini tashkil etuvchi fanlar quyidagilardan iborat: pedagogika, pedagogika tarixi, mutaxassislikka kirish, psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, metodika, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi, pedagogik mahorat asoslarini o'qitish metodikasi va boshqalar (1-ilova, 2-qism).

3. Mahsus, kasbiy mutaxassislik tayyorgarligining asosini tashkil etuvchi fanlar, o'quv kurslari qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik chizma geometriya, grafika, badiiy bezak ishlari, naqqoshliq ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik tasviriy san'at asarlarini ta'mirlash, tasviriy san'at texnologiyasi, mashina grafikasi, nusxa ko'chirish, hattotlik metall va gazmolga badiiy ishlov berish, san'at nazariyasi, san'at tarixi, zardo'zlik va boshqalar (1-ilova 3 -qism).

Oliy o'quv yurtlarida yuqoridagi asosiy o'quv fanlaridan tashqari, mahalliy ehtiyoj va sharoitdan kelib chiqqan holda institutlar ihtiyoridagi o'quv ishlari bo'yicha turli ko'lamda qo'shimcha ravishda har hil fanlar va o'quv tadbirlari o'tkazilishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining pedagogiq metodik tayyorgarligining mazmunini tashkil etuvchi ayrim fanlarga qo'shimcha o'quv materiallarini kiritishga muvofiq bo'lindi. Ular o'qituvchidan pedagogik va

metodik mahoratni ya'ni o'rgatilishi lozim bo'lgan ta'lim mazmunining o'quvchilarga mohirona yetkaza olish xususiyatiga ega bo'lishi, ta'limda mukammal metodikaga ega bo'lish ixtisoslikka oid boshqa malaka va mahorat singari o'qituvchidan qiziqish ko'tarinki ruhiyat yaxshi kayfiyat, iqtidorli, qobiliyat, o'qituvchilarni o'z sohasini sevish va ularni yaxshi bilish o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi.

Metodika so'zi grekcha "Methodos" so'zidan olingan bo'lib izlanish yo'li ma'nosini anglatadi. O'quv fanining metodikasi esa pedagogik turkumdagi fanlardan bo'lib, shu soha bo'yicha ta'limning, o'qitishning, o'rganishning qonuniyatlarini o'rganadi [111].

Tasviriy san'at metodikasi fani o'qitishni va o'rganish amaliyotining ilg'or amaliy metodlarini nazariy jihatdan umumlashtiradi tahlil qiladi, rivojlantiradi, hamda ilmiy asoslangan, amaliyotda sinalgan, yaxshi natijalarga erishgan metodlarni amalda qo'llashni tavsiya etadi.

O'qitish va o'rgatish san'ati o'ziga xos murakkab, mashaqqatli, og'ir jarayon bo'lib, uzoq yillar davomida amaliy va ijodiy mehnat faoliyati natijasida yuzaga keladi. Tasviriy va amaliy san'at ta'limi metodikasi ta'limning umumiy metodikasidan tashqari yana bir qator o'ziga hosliklarga ega. Tasviriy san'at o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatida ana shu o'ziga hoslik hususiyatlarni alohida namoyon qilmog'i lozim. Bu hususiyat tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining soha bo'yicha keng

ko'lamli nazariy bilim va amaliy malakalarga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Hususan, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi, to'garak ishlarini boshqaruvchisining rangtasvir, grafika, haykaltarosh, naqqoshliq ganch o'ymakorligi, chizmachilik me'morchilik tasviriy san'at nazariyasi va tarixi asoslarini mukammal egallagan bo'lishi, shu sohalarning pedagogik psixologik va metodik jihatlari bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lishi, o'qitish va o'rgatishning nazariy va amaliy asoslaridan habardor bo'lishi, bo'lajak mutaxassislar tayyorlash mazmunini tashkil etadi. Tabiiyki, yuqorida sanab o'tilgan ta'lim sohalari mazmuni ham shu qonuniyatga asoslanadi.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining metodik mahoratining asosini ta'minlaydigan fanlar tizimining (Pedagogika, pedagogik mahorat, mutaxassislikka kirish, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, ustozlik mahorati va boshqalar) tahlili, ushbu fanlarni bo'lajak o'qituvchi (to'garak ishlarini boshqaruvchisi)ga umumiy metodik bilimlar berishi, ularda umumiy metodik ko'nikma va malakalarining shakllanishi, maxsus fanlarni o'rganish va turli tadbirlarda ishtirok etish jarayonida tarkib topishini ko'rsatdi. SHu bilan birga talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashda metodik va maxsus (mutaxassislik) fanlarning uyg'unligi, uzviyligini ayon etdi. Fikrimizning dalili sifatida "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasining tuzilishini ko'rib o'tamiz.

Respublikamizda tasviriy va amaliy san'atni o'qitish

metodikasi darsligi yo'qligi bois oliy o'quv yurtlarining Badiiy-grafika fakul'tetlarida metodika darslarida boshqa mamlakatlarda nashr etilgan manbalardan. foydalaniladi.

4-jadval.

“Metodika” darsligining tuzilishi.

	Bo'limlar va mavzular	Boblar	Berilgan materialning hajmi
	Kirish. Metodikani o'rganish predmeti sifatida.	1-bob	
	Tasviriy san'atni o'qitish metodlari tarixidan qisqacha lavha.	2-bob	
	Tasviriy san'atni o'qitishning chet el tajribasi bilan aloqadorligi.	Mavzu	
	Tasviriy san'atni o'qitishning Rossiya tajribasi.	Mavzu	
	Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodlari.	Mavzu	
	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitishning maqsad va vazifalari.	3-bob	
	Umumiy o'rta maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarining mazmuni.	4 -bob	
	Naturaga qarab rasm ishlash	Mavzu	
	Manzarali rasm ishlash	Mavzu	
	Mavzuli rasm ishlash	Mavzu	
	San'at haqida suhbatlar	Mavzu	
	Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasining asosiy didaktik	5- bob	

	holatlari		
	Ta'limning tarbiyaviyligi va g'oyaviyligi tamoyili	Mavzu	
	Ilmiylik tamoyili	Mavzu	
	Ko'rsatmalilik tamoyili	Mavzu	
	Ta'limda onglilik va faollik tamoyili	Mavzu	
	Ta'limning tizimliliigi va izchilligi tamoyili	Mavzu	
	Ta'limning soddaligi va o'zlashtiriluvchanligi tamoyili	Mavzu	
	O'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi va rahbari sifatida	Mavzu	
	Dars maktabda o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli	Mavzu	
	O'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olish	Mavzu	
	Sinf dan va maktabdan tashqari ishlar	Mavzu	
	Tasviriy san'at to'garagi	Mavzu	
	Sayo'hatlar	Mavzu	
	Suhbatlar	Mavzu	
	Ma'ruzalar	Mavzu	
	Kinofilmlar	Mavzu	
	O'quvchilarning berilgan vazifalarini uyda bajarishi	Mavzu	
	Maktabda o'tkaziladigan tadbirlar, tanlovlar	Mavzu	
	O'rta maktabda fakultativ mashg'ulotlar	Mavzu	

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, maktabda tasviriy san'atni

o'qitish metodikasi kursi o'qituvchiga o'qitish va o'rgatish bo'yicha umumiy bilimlarni berishga yo'naltirilgan, ushbu darslikning yaratilganiga va amaliyotda qo'llanilayotganligiga 20 yilga yaqin vaqt o'tdi. Ana shu davr mobaynida ayniqsa, keyingi 2-3 yil ichida mamlakatimizda ta'lim tizimining mazmuni maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari o'zgardi, Umumiy-o'rta ta'lim sohalari, jumladan tasviriy san'atdan birinchi bor davlat ta'lim standarti, amaldagisidan mutlaqo farq qiluvchi original dastur [145] ishlab chiqildi. Yangi dastur bo'yicha ta'lim mazmuni o'zgarishi munosabati bilan tasviriy va amaliy san'atdan to'garak mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi, unga monand tarzda talabalarni to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlash jarayonining mazmuni va metodikasi o'zgarishi lozim, garchi yuqorida sanab o'tilgan 30 mavzudan iborat tasviriy san'at ta'limi metodikasi darsligi juda ko'p didaktik imkoniyatlarga ega bo'lsada, davr o'zgarishi, ta'lim-tarbiya maqsadlarining o'zgarishi, qolaversa, sharqona tasviriy san'at hususiyatlarining namoyon etilmaganligi zamonaviy o'qitish uslublarining ta'limga kirib kelishi ushbu darslikni yangilash zaruriyatini keltirib chiqaradi. SHarq tasviriy va amaliy san'ati, sharqona tafakkur, sharqona mo''jaz rangtasvir san'ati boshqa hududlardan, boshqa xalqlarnikidan tubdan farq qiladi. SHarq tasviriy va amaliy san'atini o'qitishni metodikasi fani ana shu o'ziga hoslikni o'zida mujassamlashtirgan holda o'qituvchining metodik bilim va ko'nikmalarini shakllantirib bormog'i lozim.

Tasviriy va amaliy san'atning ko'p qirraliligi va sohalarning har birining o'ziga hosligi, har bir sohaning ham o'z navbatida ko'p tarmoqlarga ajralib ketishi o'qituvchining o'quvchilarga tasviriy san'atni ko'plab sohalarining asoslarini o'rgatishga to'g'ri kelishini hisobga olgan holda, ushbu fanni o'qitish metodikasini tubdan isloh qilish zaruriyati yuzaga kelganligidan dalolat beradi. Amaliy san'at, hususan ganch o'ymakorligini o'rgatish metodikasi esa atroflicha ishlangan emas.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi ganch o'ymakorligining sir sinoatini bilmay turib, o'quvchilarga o'rgatishi mumkin emas.

Ma'lumki, ganch o'ymakorligini o'rganish o'rgatishda naqsh chizish muxim ahamiyatga ega. Naqsh chizishni yaxshi bilmasdan turib ganchni har qancha chiroyli o'ymasin, baribir uni yetuk usta deb hech kim tan olmaydi.

Ganch o'ymakorligida asosiy naqsh bilan xoshiyani bog'lab turadigan naqsh bu zanjiradir. Zanjira tuzilishining marakkabligiga karab oddiy va murakkab bo'lishi misollar orkali ko'rsatilib, uning ahamiyati tushuntiriladi. Zanjira naqshlarning ramkasini o'rab turadi. U ajoyib, sodda bo'lishiga karamay, geometrik shakllarni o'yganda yorug' va soyalar kishini o'ziga jalb etadi. Zanjira turlari plakatlar yordamida ko'rsatiladi. Zanjirani tayyorlashda, asosan ko'zda to'g'ri chamalash, to'g'ri chiziqlarni bir xil o'yish lozimligi o'quvchilarga o'rgatiladi. Katta bo'lmagan ganch taxtani (30x30sm) qo'yib chizish va o'yish, doskada bosqichlari bilan tushuntirib beriladi. O'quvchilar zanjirani oddiysidan boshlab

chizishlari va o'yishlari lozim. O'qituvchi ularning ishlarini kuzatadi va namoyish etadi. Zanjirani bir xil chuqurlikda o'yib, qirralarining bir tekisda chiqishiga erishish kerak. Qanday Qilib piramidalar hosil kilinishi ko'rsatiladi. O'yma qirralari o'tkir, qirrali bo'lishi uchun o'quvchilarga individual yordam berib borilishi lozim. Oddiy zanjira o'yib bo'lingach, murakkab zanjiralar o'yiladi. Amaliy mashg'ulot oxirida o'quvchilar ishlari taxlil qilinib, kamchiliklari ko'rsatiladi.

Har bir xalk amaliy san'at turlarida o'ziga hos tuzilishga, ko'rinishga, mazmunga ega bo'lgan naqshlar ishlatiladi. Shu qatori ganch o'ymakorligida ishlatiladigan naqshlar ham o'ziga hos harakterga egadir. Tabiiyki naqsh elementlari naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, tosh o'ymakorligi, kashtachilik va boshqa turlarida ishlatiladigan naqsh elementlari va naqshlar bilan o'ziga hos farq qiladi. Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g'uncha, kabutar, tovus va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalari, ko'rinishini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarini stillashtirib olganlar.

Chunonchi, usta gulni stillashtirib olishda uning go'zalligini qaysi xolatda (ustidan, yonidan, tagidan) ko'rinishini tasvirlashni izlab topadi.

Har kandy kishi ganch o'ymakorligi,



naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi va boshqalarni o'rganish uchun naqsh elementlari chiza olishni o'rganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishlashni alifbosi hisoblanadi. Tasviriy san'at o'qituvchisi darsda o'simliksimon naqsh elementlari barg, gul, marg'ula va tanob, shkufta, bog'lam va sirtmoqlarning turlari, nomlari va ularni chizishni o'rgatib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Barg o'simliksimon naqsh elementlari bo'lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o'simlik bargni stillashtirib olgan tasviri. Barg naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va husn beruvchi elementdir. Ular tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko'p barg, shobarg va boshqalar kiradi. Barglarning quyidagi: stilizatsiya - qush, baliq, xashoratlari, barg, gul shakli va rangi naqshga moslashtirib hamda umumlashtirib olinadi. Chunonchi, shobarg (shoxona barg) eng katta barg, ko'p barg, chor barg, (to'rtta barg), xurmo bargi, tol bargi, anor bargi, qashqarchi bargi, madoxil bargi, qo'sh bodom bargi, qalampir bargi, nok bargi, sambit bargi va boshqa 50 dan ortiq turlari bor.

G'uncha-tabiatdagi g'unchalarni usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri. Gul-tabiatdagi naqqoshlar tomonidan stillashtirib olingan tasviri. Gul naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va husn beruvchi element bo'lib hisoblanadi. Gullarning har xil turlari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos nomlanadi. Chunonchi, uch-besh yaprog'li, oygul, lola gul, paxta gul, no'xot gul, chinni gul, savsar

gul, atir gul, gulafshon, gultojixo'roz va boshqalar shular jumlasidandir.

Gullar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkabga bo'linadi. Murakkab gullarga pista gul, ko'p bargli gul,



oddiy gullarga esa oygul, lola gul, no'xot gul va boshqalar kiradi. Gullar har xil tuzilishga ega bo'lganligi uchun ularni o'ziga xos nomlari bor.

Shkufta – o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, novdalar bir-birini bog'lash va yuzalarini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shkufta tuzilishi jihatidan turlicha bo'ladi. Bir yerda kichik sodda bo'lsa, ikkinchi o'rinda anchagina takomillashgan, uchinchi joyda ikki tomondan kelayotgan shkufta madoxil yoki shunga o'xshash shaklni hosil qilishi mumkin.

Bog'lam va sirtmoqlar–o'simliksimon naqsh elementlari bo'lib, bandi rumiy boftaning oddiy turi hisoblanadi. Ikki tanobni uchinchi sirtmoqsimon egib o'ziga bog'lashni sirtmoq deyiladi. Sirtmoqlar bir-biri bilan chalkashib o'tadi, umumiy ko'rinishi xuddi sakkiz raqamini eslatadi.

Bofta – tanob aylanib o'tib hosil qilgan shakl, islamiy naqsh elementi. Boftalar to'g'ri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'ladi.

Marg'ula – qo'sh chiziqli gajak, o'simliksimon naqsh

elementi. U misgarlik, naqqoshlik, zardo'zlik kabilarda ishlatiladi. Agar bir novdani uchidan ikki marg'ula hosil bo'lgan bo'lsa, uni qush marg'ula deb yuritiladi. Agar novda bilan marg'ula tasvirlangan bo'lsa, marg'ulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida marg'ula to'ldiruvchi element hisoblanadi.

Band – (novda nabotiy) naqshlardagi o'simlik va daraxt novdasini ifodalovchi yo'l bilan u tanobga nisbatan ikkilamchidir. U o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, u tabiatdagi daraxt yoki o'simlik, gullar novdasi va tanasining stillashtirib olingan tasviridir. Har bir naqsh elementi singari bandning ham kompozitsiyada qo'llanishning o'ziga xos qoidalari bor. Masalan, bandning aniq bir o'lchamda bo'lishi kompozitsiyada gullarga nisbatan saqlanish, u naqshda gullar, barglar va tanoblarning tagidan utishi va h.k. Turli naqshlardan kompozitsiyada bandtsan o'ziga xos metodda foydalaniladi, shuning uchun ham naqshlar bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, Xorazm naqshida bandlar kam, kurtak va barglar deyarli bo'lmaydi. Novdalarning o'zi prujina singari bir-biriga to'kilib ketadi. Bundan tashqari novda shoxlash paytida Buxoro, Toshkent va Samarqand nusxalaridan ko'pincha shkufta bilan shoxlari bir-biriga mustahkamlashsa, xorazmliklarda shkufta ajratilmay o'rniga novdacha qo'shiladi.

Tanob – arabcha chilvir, arqon degan ma'noni beradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va naqshiga shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi. Markaziy Osiyo naqshlarida bir xil yo'g'onlikdagi chiziq bo'lib, ustalarimiz tabiat

manzarasida uchraydigan anxorning shartli tasviri deb olganlar. Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi navbatda tanob tortib, keyin novdalarni chizadi. So'ngra novdalarni yo'nalishiga moslab gullar joylashtirib chiqadi. Ustalar naqsh kompozitsiya chizishda tanobni birinchi rejaga qo'yadilar. Tanob ustidan hech qachon, gul, novda yoki barg bosib o'tmaydi. Tashqari tanob tag ranglarini bir-biridan ajratib turadi. Tanoblar xilma-xil bo'lib, bir kompozitsiyada boshlanganicha uzluksiz davom etadi, ba'zi nusxalarda tanob ikki nuqtadan boshlanib bir-biriga qarab yo'nalib, bir-biriga chirmashib tugallanadi, yana boshqa nusxalarda tanob bir nuqtadan boshlanib ikkinchi tomonga yo'nalib taqsim chetiga borib tugallanadi. Tanob egri, to'g'ri, aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Agar kompozitsiyada tanoblar kesib o'tuvchi rangli naqshlarda ishlatilsa, unda albatta ikkalasi ikki xil rangga bo'yaladi. Agar bir xil rangga bo'yalsa, unda asosiy shakl o'zini ko'rsata olmaydi. Tanob bir-birini kesib o'tmay bir-biriga parallel bo'lsa, bunday nusxani "qush tanob" deb ataladi. Agar tugallangan mustaqil kompozitsiya bo'lsa, "qush tanobli namoyon" deb ataladi. Kompozitsiyada tanob bir-biridan ortiq ham bo'lishi mumkin. Agar ikki tanobli kompozitsiya bo'lsa, bir boshi ikkinchi gul, barglarning o'tishi mumkin emas.

Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash.

Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garaki ishlariga tayyorlashning eng ishonchli yo'li talabalar bilan o'tkaziladigan

amaliy harakterdagi seminarlar hisoblanib, mashg'ulotlarining bu shakli orqali talabalar nafaqat bo'lajak kasbni mazmuniy, metodik jihatlarini egallaydi, balki uni amalda sinab ko'radi. Fikrimizning isboti uchun pedagogik amaliyot dasturi bo'yicha o'tkazilgan amaliy seminar mashg'ulotining namunasini keltiramiz.

Mavzu: "Ganch va uning xususiyatlari"

Mashg'ulotning maqsadi: a) Ta'limiy: o'quvchilarga ganch va uning o'ziga hos hususiyatlari to'g'risida tushunchalar, bilimlar berish.

b) Tarbiyaviy: o'quvchilarni ganchkorlik san'atiga hurmat xissini shakllantirish.

v) Rivojlantiruvchi: to'garak qatnashchilarining xalq amaliy bezak san'ati to'g'risidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish ganch o'ymakorligi to'g'risida yangi bilimlar berish, jamlangan ko'nikmalarini takomillashtirish.

Mashg'ulotning jihozlanishi;

Metodik qo'llanmalar:

1) S.S.Bulatov, O'zbek amaliy bezak san'ati, – T.: Mehnat, 1991.-384 b.

O'quv-metodik qo'llanma.

2) S.S.Bulatov. Ganchkorlik. – T.: o'qituvchi. 1990. – 80 b.

3) S.S.Bulatov, A.Amanullaev. Ganch o'ymakorligi. Dastur. – Namangan, NamDU. 1992. – 21 b.

Moddiy, homashyoviy jihozlanishi: ganch kukuni, suv, tog'ara, yog'och kurakcha, suvoqchi kurakchasi (andavasi) elak

chelak;

Ganch qorishmasi tayyorlanishi jarayoni tasvirlangan ko'rgazmali qurollar, chizmalar.

Mavzuning bayoni: Ganch tabiatda uchraydigan gips toshlarini mahsus pechlarda qizdirilib, maxsus maydalagichlarda kukun holatiga keltiriladi. Maydalangan gips avvalo g'alvirda, (yirik ko'zli, o'rta ko'zli va mayda ko'zli) so'ngra elakdan o'tkaziladi. Juda mayda kukunli ganch gulganch, ozgina yirikrog'i esa tezganch deyiladi, eng yirikrog'i esa alebastr deyiladi. Ganch kukuniga ma'lum darajada suv qo'shilsa, atalasimon suyuqlik qorishmaga aylanadi. Ma'lum muddatdan so'ng ushbu qorishma asta-sekin qota boshlaydi va 8–10 soatdan keyin butunlay qotib qoladi.

Ganchning qattiqligi, birikuvchanligi elastikligi va pishixligini oshirishi uchun unga sirach tuxum oqi, zig'ir yog'i, dekstrik stearin, kazein yelimi qorishmasi, sut va boshqa qo'shimchalar qo'shiladi. Ganch qorishmasi yarim suyuq qorishma vaqtida zaruriy joyga chaplanadi va juda qotib qolmasidan o'ymakorlik ishlari boshlanadi. O'ymakorlikni boshlash uchun kog'ozdan chizilgan naqshlar yoki zanjiraning o'lchamiga qarab qalinligi 2,3 sm tomonlari 20,30, 40 sm bo'lgan asos quyiladi Asosning tagidagi birinchi qavat tezganchdan, qolganlari (hovonda) gulganchdan quyiladi.

Tezganchni qo'yish uchun chelakdagi ma'lum darajadagi suvga ganch kukuni sepib boriladi va kaymoq holatidagi massa

hosil qilinadi hamda ilgaridan tayyorlangan qolipga (taxtadan) qo'yiladi. Ganch quyilgach 5–10 minutda qotadi. SHundan so'ng ushbu tezganchning ustiga gulganch qorishmasi quyiladi va ozgina qotishi bilan quyilib, tekislanadi va u qotgach esa qolipdan ko'chirib olinadi. Tayyor bo'lgan tezganch va gulganchdan iborat plita ustiga axta (ya'ni naqshlar shakli bilan teshilgan qattiq qog'oz) qo'yilib, qora kukun masalan, ko'mir kukuni solingan mato moslama bilan ishqalanadi. Natijada ular axta teshiklaridan o'tib yuzada naqsh hosil bo'ladi. Bu chiziqlarni chekich qalami bilan belgilanadi hamda ganchga zaruriy naqshlar o'yishga kirishiladi.

Yangi mavzu bayoni 10-15 minut davom etdi. SHundan so'ng o'qituvchi talaba Asadullaev Komiljon ilgaridan tayyorlab qo'yilgan ganch kukuni, suvni xovonchaga solib aralashma tayyorladi va uni qolipga quyib ko'rsatdi. Qolipga solingan tezganchni ozgina qotirib, ustidan gulganchni quyib ko'rsatdi, andava bilan tekisladi. Axtani qotgan ganch ustiga qo'yib naqshlar tasviriga kukun sepib, ko'rsatdi va so'ng chekichladi. Bu ishlarni o'qituvchi sinfdagi faol o'quvchi Alimov Xudoyqul bilan birgalikda tayyorlab ko'rsatdi. Bu ishlarni bajarib ko'rsatish uchun o'qituvchi 35-40 minut sarfladi. Darslarni mustahkamlash uchun quyidagi savollar berildi:

1. Ganch nimadan olinadi?
2. Ganch kukuni xillari necha xil bo'ladi va qanday nom bilan ataladi.

3. Ganchning xossalarini oshirish uchun nimalar qo'shiladi.?

4. Ganchga naqsh tushirish qanday amalga oshiriladi?

5. Xovonda va axta nima?

O'qituvchi yuqoridagi savollar bilan bolalarga murojaat qilib bolalardan zaruriy javoblarni olgach, ularni baholadi.

Ushbu mashg'ulotni o'quvchi-talaba an'anaviy tuzilish asosida o'tgan bo'lsada, ikkita 45 minutlik mashg'ulotning ketma-ket quyilib, 80-90 minutlik vaqt zahirasini ta'minlanganligi sababli o'tilgan mashg'ulotni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish va amaliy ravishda ko'rsata olish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismlarini to'liq amalga oshirib ulgura oldi. Demak tasviriy va amaliy san'at darslari ko'proq bolalar va o'qituvchining amaliy ijodiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilganligi sababli odatdagidek 45 daqiqa emas, balki, 80-90 daqiqa davom etgandagina yaxshi samarali bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bizning fikrimizcha ganch o'ymakorligi to'garaklarida 45,80,90 daqiqalik qilib taqsimlab o'tish emas, balkim bir to'garak mashg'ulotida, bir mavzuni butunlay o'tishga vaqt taqsimotini yo'naltirish lozim bo'ladi.

Umuman olganda an'anaviy shakldagi, yangicha mazmundagi ushbu to'garak mashg'uloti qoniqarli saviyada o'tdi, deb hisoblash mumkin. Chunki o'qituvchi mashg'ulotning mavzusini o'tishda oldiga qo'yilgan har uchala maqsadga ham erisha oldi.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi, to'garak ishlarini boshkaruvchisi tayyorlashning mazmuni bo'lajak mutaxassisdan

ijtimoiy-siyosiy, pedagogik-psixologik tibbiy-fiziologik metodika va texnologik huquqiy va ekologiq tarixiy-demografik madaniy-estetik va boshqa bir qator sohalardan bilimlarga ega bo'lishlarini talab etadi. SHundagina bo'lajak mutahassis tasviriy san'at ta'limi, amaliy san'atdan to'garak mashg'ulotlarini samarali olib borishga tayyor bo'ladi. Sanab o'tilgan sohalar bo'yicha ta'lim mazmuni quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Mafkuraviy bilimlar. O'zbekiston Respublikasida, SHarqda va dunyoning boshqa joylarida yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlar, olimlar va ularning harakterlari; jahonda sodir bo'layotgan voqealarning O'zbekistonning kelajak ravnaqiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siri; bevosita qo'shni davlatlardagi siyosiy harakatlar tahlili; respublikaning ichki taraqqiyotida turli mafkuraviy o'zgarishlarning sharqi, har bir o'qituvchining, ziyolining ushbu voqealarga befarq qaray olmasligini to'g'ri anglab yetish va ularni o'quvchilar ongiga singdira bilish.

2. Ruhiy psixologik bilimlar. Bolalarning ijodkorlik qobiliyatlari, diqqati, hayoli, hotirasi, yosh hususiyatlarini rivojlanish bosqichlari to'g'risida psixologik bilimlar: har bir bola ijodiga, uning ruhiy, ichki dunyosiga mos shaxsiy yondoshish; bolalarning ichki dunyosi, ular yaratgan tasviriy san'at asarlarida namoyon bo'lishining ruhiyatga bog'liqligi; bolalarning ruhiy tushkunligining oldni olish, bartaraf etish yo'llari; ijodkorlikning psixologik va fiziologik asoslari. O'quvchilar faoliyati va o'zi rahbarlik qilayotgan o'quvchilar jamoasi psixologiyasini

tushunish;obrazli tasavvur faoliyatida ijodkor ichki dunyosining nomoyon bo'lishi, uyqu,charchash, toliqish, psixologik kategoriyalar harakterlar temperamentlar hususiyatlarining ijodiy ma'hsuldorlikda namoyon bo'lishi.

3. *Pedagogik va metodik bilimlar.* Pedagogika fani, uning maqsadi, tarixiy kategoriyalari, yo'nalishlari. tarbiyashunoslik ta'lim nazariyasi maktabshunoslik asoslari, uslublari, vazifasi, mazmuni; tarbiyaning tarkibiy qismlari, ta'limning tarbiyaviyligi, sinf dars tizimi; o'quvchi va o'qituvchilar; pedagogikaning turlari bolalar va kattalar pedagogikasi, mahsus pedagogika (oligofreno, surdopedagogika, logopediya). Ta'lim va tarbiyani amalga oshirish vositalari; dars va darsdan tashqarida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar; tasviriy va amaliy san'atni o'qitish nazariyasi va metodikasi, maqsadi, uslublari, vazifalari, o'ziga hos hususiyatlari; ta'limda ko'rsatmalilik ijodkorlik va amaliylikni ustivorligi; ushbu fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi; mazkur fan mashg'ulotlariga va o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar; darslarni tashkil etish tuzilishi, qismlari, har bir qismning vazifalari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish, tekshirish va baholash mezonlari, usullari; ta'limning o'quv-metodik va moddiy-texnik ta'minoti. ta'limda to'garaklarning o'rni va mohiyati, ularni tashkil etish metodikasi; turli tadbirlarni tashkil etish mazmuni, yo'llari; o'qish, o'rganish, o'qitish, o'rgatish, ilmiy tadqiqot uslublari; o'quvchilarni tasviriy san'at kasblarini o'rganishga rag'batlantirish.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi turli matematik bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. Chunki, tasviriy va amaliy san'at ta'limi jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mustaqil ravishda turli o'lchash, hisoblash, chizish, mo'ljallash, chamalash ishlarini bajaradilar. Olingan natijalarni matematik yo'llar bilan hulosalaydilar, umumlashtiradilar. Shuningdek amaliy san'at, hususan ganch o'ymakorligi san'atini namunalari bir qator geometrik amallar, chizmachilikka oid qoida va usullardan foydalanilgan holda ishlanadi. Bularning hammasini amalda bajarish qoidalarini tushunarli tilda bayon eta olishi to'garak qatnashchilari tomonidan turli (islimi, geometrik aralash) hildagi naqsh elementlarini kompozitsiyalarni hosil qilishda foydalanishlarini ta'minlashi lozim.

Tasviriy san'at o'qituvchisi yangi texnika va texnologiyalar to'g'risida ham ma'lum darajada bilimlarga ega bo'lmog'i zarur, ishlab chikarish texnikasi, tehnologiyasi, ushbu sohaning o'zida foydalaniladigan texnik vositalari, qurilmalar, tehnologik jarayonlar to'g'risida aniq tassavurga ega bo'lmoqlari lozim. Ishlab chiqarish texnikasi turlari, tehnologiyasi hususiyatlarini bilish shu sohadagi turli asarlarni yaratilishida ularning jonli chiqishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyot qonuniyatlari va iqtisodiy bilimlar –hozirgi zamon har bir kishisining, jumladan, tasviriy san'at o'qituvchisining ham davlat markazida turmog'i lozim. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlari: qurilish, qishloq ho'jaligi

mashinasozlik sanoat, savdo va san'at sohalari, xo'jalik yuritish mehanizmi, boshqarish asoslari, korxonalar davlat va hususiy, shaxsiy korxonalarining tuzilishi, kirim, chiqimlar, iqtisodiy qonuniyatlar, bozor iqtisodiyoti, mehnat bozori, mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish, ishchilar, rahbarlar, ustalar, mehnatini me'yorlash va haq to'lash, tasviriy san'at vakillarining mehnatini taqdirlash va rag'batlantirish. CHunki, ganch o'ymakorligi yuqorida sanab o'tilgan jabhalarning barchasida o'zini mujassamlashtirgan. Ganch o'ymakorligi har-hil materiallar, homashyo bilan ko'pchilik bo'lib (guruh, brigada) faoliyat ko'rsatishga bog'liq, SHu bois ham talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashda shu soha bilimlariga ega bo'lishi lozim.

Demografik (axolishunoslikka doir) bilimlar. Tasviriy san'at halqlar paydo bo'lish bilan birgalikda paydo bo'lgan va tarixiy taraqqiyoti halqning ko'chib yurishi, o'sishi bilan doimo bog'liqdir. Xalqning yashash zichligiga bog'liq holda san'atning rivojlanishi, san'at iste'mol buyumlarining aholi zichligiga mos holda taraqqiy etishi va boshqalar, Bu bilimlarga ega bo'lish shuning uchun ham kerakki, u amaliy san'atning rivojlanishi, uning boshqa ijtimoiy hususiyatlari kishilik jamiyatining taraqqiyoti bilan bog'liq.

Tibbiyot va biologiyaga oid bilimlar. Tasviriy san'atda o'quvchi va o'qituvchining ish faoliyatini tashkil etish; sanitariya-gigiena qoidalari. Mehnat xavfsizligi va qonunchiligi asoslari.

Bolalar ijodiyotida ularning yosh hususiyatlarini hisobga olish; ishlab chiqarish davridagi jarohatlanishlar va ularning oldini olish, tez yordam ko'rsatish qoidalari va boshqalar.

Ekologik bilimlar. Tasviriy san'at kishisi avvalo tabiatdan zavq oladi. Atrof-muhit tozaligi tabiat, tabiiy zahiralari; ekologik toza mahsulotlar; inson, tabiat, suv, havo ishlab chiqarish ekologiyasi; ekologik muvozanatlar; ekologik madaniyat va tafakkur; kam chiqindili texnologiya.

Huquqiy bilimlar. O'quvchilar va o'qituvchilarning huquqiy-qonunchiligi; turli nizo bahsli holatlar yuzaga kelganda o'quvchilar va o'qituvchilar manfaatlarini himoya qiladigan qonunlarni bilish; bolalarning faoliyat me'yorlari, ularning ish tartibi va haq to'lash; o'quvchilar va o'qituvchilarning ijtimoiy himoyalanganligi va boshqalar.

Estetik bilimlar. Tasviriy va amaliy san'at mashg'ulotlarining bosh maqsadi o'quvchilarning estetik didlarini shakllantirishdan iborat. Ish o'rnini, binoni, yashash joyini estetik jihozlash; ergonomika va dizayn; ish o'rinlarida qulaylik mehnatni ilmiy tashkil etish va yoritilganlik shovqin titrash va unga qarshi kurash choralari va boshqalar.

Umummadaniy bilimlar. Umumjahon madaniyatida O'zbekiston madaniyati va uning qirralari; o'qituvchi madaniyati; pedagogik mahorat, uslub, nutq texnikasi kiyinish, o'z-o'zini boshqara olish, muomala madaniyati; o'qituvchining kasbiy, aktyorlik rejissyorlik madaniyati.

Axborotlarni to'play olish bilimlari. O'qituvchining turli bilimlarni egallay olish yo'llarini bilishi, adabiyotlar, manbalar, vaqtli matbuot, arhivlar bilan ishlash; teleko'rsatuv va radio eshittirishlarda qatnasha olish; axborotlarni tizimga solish qoidalari; axborotlar banki, kartotekalar tuzish.

Tashkilotchilikka oid bilimlar. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda rejalashtirish; mehnatni ilmiy tashkil etish; vaqtni tejay olish; o'zining va o'quvchilarning ish, ijodiy faoliyatini, dam olishini, sayohatlarini tashkil etish; pedagogik mehnatning mahsuldorligini ta'minlashning istiqbolli yo'llari.

Sanab o'tilgan bo'lim sohalari mutaxassislik predmetlari bilan bir hil ahamiyatga ega. Boisi jamiyatimizning rivojlanishi, uning tarmoqlariga bozor munosabatlarini joriy etilishi bo'lajak to'garak ishlarini boshqaruvchisini professional faoliyat turlari bo'yicha keng tarmoqni tashkil etishni taqozo etadi.

Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlariga tayyorlashda qo'llaniladigan metodlarning o'ziga hosligi shu san'at turining mohiyati, o'ziga hosligi bilan belgilanadi, Shuning uchun ham pedagogikaning umumiy didaktikasida ustivor deb baholangan metodik yondashuvlar mutloqo mos bo'lmaydi. Shuning uchun ham amaliy sana'tda amaliy harakter kasb etuvchi metodlar ko'proq samara beradi. Boisi uni tarixiy-nazariy asoslaridan tashqari amalda bajara olish lozim bo'ladi. Bu faoliyat jarayonida tafakkur bilan amaliy malaka hamohang tarzda qo'llanishi lozim.

Ganch o'ymakorligi sir-asrorlarini o'rganishda namuna metodi ko'proq qo'llaniladi. Ustoz bir asarni bajarish yuzasidan nazariy ma'lumot berib bo'lgach uni amalda bajarib ko'rsatishi lozim. Bu jarayon ham ikki shaklda olib boriladi. Birinchi yondashuvda ustoz bir asarni to'liq bajaradi. Bu jarayonda ham qo'llanilayotgan metodga yordamchi metodlarni tatbiq etadi: savol-javob, hikoya qilish, muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va boshqarish. Ustoz ishni to'liq bajarib bo'lgach shogirdlar shu ishni yoki shunga o'xshash variantini bajarishga kirishadi. Bu faoliyat uchun unga murakkab bo'lmagan naqsh kompozitsiyasi olinadi va u bir turdagi (girix yoki islami) topshiriq shaklida bo'lishi tavsiya etiladi.

Namuna metodining ikkinchi yondashuvida ustoz bir topshiriqni bir necha bosqichga bo'lib oladi va uni ayrim bosqichlarini o'zi bajaradi, ayrim bosqichlarini esa shogirdlariga bajartiradi. Topshiriqning shogirdlar bajaradigan qismi bajarilishi texnikasiga ko'ra ustoz bajargan qismga o'xshash bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv to'garak qatnashchilarida ma'lum darajada amaliy malaka shakllangan taqdirda qo'llaniladi. Talabalar esa to'garak ishlarini boshqaruvchisi sifatida bo'lajak faoliyatga tayyorlanish jarayonida, topshiriqni amaliy bajarish jarayonida uni o'quvchilarga o'rgatish metodlaridan ham bohabar bo'lib boradi.

Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashda bu metodni ustivor metod sifatida talqin etilishining boisi uni amaliy harakter kasb etishidadir. SHuning uchun ham ganch o'ymakorligi amaliy san'at turi hisoblanadi.

Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashda ma'ruza, hikoya qilish metodidan foydalanishga o'rgatiladi. Chunki bu san'at turi juda qadimiy va boy tarixga ega. Ana shu boy tarixni hikoya qilish metodi orqali o'quvchilarda ma'naviy madaniyat, milliy qadriyatga ehtirom, undan g'ururlanish, vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiyalab boriladi. Buning uchun talabani manbalar bilan ishlash metodidan ham habardor qilib borish lozim. Zero hikoya qilish uchun qiziqarli faktologik materiallar aynan tarixiy manbalardan olinadi. Bu manbalardan olingan materiallar qayta ishlash metodi orqali o'quvchilarning u yoki bu harakterdagi materialni qabul qilishga tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shuningdek ganch o'ymakorligining texnikasi, texnologiyasiga oid tushunchalarni ham hikoya qilish metodi bilan tushuntiriladi. Texnik-texnologik jarayonlarning aksariyati amaliy namuna metodi bilan tabiiy bo'lgan holda hamohang tarzda qo'llaniladi. Talabalar, bo'lajak to'garak ishlarini boshqaruvchilari bu metodlarni o'zlashtirish bilan birga o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida ulardan foydalanishni ham o'zlashtirib borishlari lozim. Talabalarning ganch o'ymakorligidan amaliy malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda. nazorat metodi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek bu metod talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatadi. Bunda talabalarning (to'garak qatnashchilari) har birlari shaxsiy topshiriq bajaradi. Ustoz esa ularning ishining borishini faqat nazorat qilib boradi. Ayrim hollarda ba'zi shogirdlarga qisqa muddatli amaliy na-

muna ko'rsatish mumkin. Nazorat qilish metodi talabalarning guruh bo'lib ishlash jarayonlarida ham qo'llaniladi.

Talabalarni guruh bo'lib ishlashlari ganch o'ymakorligining mohiyatidan kelib chiqadi. Ganch o'ymakorligi amaliy san'atning boshqa ayrim turlaridan farqi shundan iboratki, u jamoa bo'lib, guruh bo'lib ishlashni taqozo etadi. Chunki ganch o'ymakorligi katta hajmdagi jismoniy mehnatni talab etadi. Ikkinchi jihatdan bu san'at turi me'morchilikning tarkibiy qismi pardoqlash, badiiy qiymat berish vositasi sifatida belgilangan muddatda bajarilishi talab etilishi bois ham jamoa bo'lib ishlanadi, Jamoa bo'lib ishlash ganch o'ymakorligini ko'p yillar davomida qo'llanib kelinayotgan usul biroq, uning metod sifatidagi mohiyati pedagogik talqin etilmagan.

Bu o'rinda o'quvchilarni ko'rgazmalarga olib borish ham muhim o'rin egallaydi. Bu tadbirdan maqsad amaliy bezak san'ati turlari haqidagi dunyoqarashlarini kengaytirish, san'at turlarini farqlay olish, ustalarning asarlari bilan tanishish orqali ijodiy kobilyatlarini hamda bilim va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. O'quvchilar turli xil tarixiy tamoyillar, ya'ni ko'rgazmaga qo'yilgan asarlar muallifi bilan uchrashib suhbatlar o'tkazadilar va fikr almashinadilar hamda savol-javoblar qiladilar. O'quvchilarni ustalarning ish ob'ektiga olib borishni tashkil etishning ham o'ziga xos ijobiy tomonlari mavjud. Jumladan, o'quvchilarni ganch o'ymakorligi obyektlariga olib borib, ganchkor usta va uning shogirdlari bilan yuzma-yuz tanishtirish,

ular bilan suhbat qurib savol-javoblar o'tkazish orqali ganch o'ymakorligi to'g'risida ma'lumotlar olish bilan bir vaqtda, shu sohaga bo'lgan qiziqishni oshirish ham mumkin. SHu bilan birga usta va shogird o'rtasidagi odob hamda turli hunarmandchilik an'analari bilan yaqindan tanishadilar. O'quvchilar hozir ganch o'ymakorligi binolarda keng qo'llanilayotgani, ular qanday bajarilayotganligini o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Ustalarning xomaki nusxalari, suvoq turlari va suvash usullaridan amalda qanday foydalanishlarini kuzatadilar. Ganch o'ymakorlik ishlarining qanday bosqichlarda amalga oishirilishi jarayoni bilan yaqindan tanishadilar. Ganchkorlikda qo'llanilayotgan elementlarni albomga chizib oladilar. Ular sayohatdan olgan taassurotlarini savol-javob orqali mustahkamlaydilar. O'zlari yangi kompozitsiyalar yaratadilar. Bu esa ularni yanada ijodiy izlanishga undaydi.

Qadimiy obidalarining va undagi bezaklarning umri boqiyliigi shundaki, juda qadimdan ota-bobolarimiz yuqori sifatli, g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan qurilish materiallaridan keng foydalanib kelganlar. Shunday mahalliy materiallardan yog'och, ganch, tuproq va boshqalardir. Bu materiallarni qaerda va qanday qo'llanish sir-asrorlarini juda yaxshi bilganlar. Shuning uchun ham asrlar osha hozirgacha ota-bobolarimizning qurgan muhtasham binolari, o'yma ganch, yog'och naqshlari bugungi kungacha o'z jilvasini yo'qotmay turibdi. SHunday materiallardan biri ganchdir.

Ganch – mahalliy qurilish materialli bo'lib, uning rangi

ko'kish, sarg'ish va oq bo'ladi. Ganch turli shaharlarda turlicha nomlar bilan yuritiladi. Kavkazda «gaja», forsha «gaj», tojikcha «ganch», turkcha «urunak» o'zbekcha «ganch» deb yuritiladi. Ganch gips bilan tuproqning tabiiy aralashmasi bo'lib, ganchning tarkibini 40%-70% gacha gips tashkil qiladi. Ganch ikki xil: tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy ganchlar katta harsang tosh xolida bo'lib, undan to'g'ridan to'g'ri o'yib, yo'nib, tirnab qurilishda ustun, xaykal va bezak sifatida foydalaniladi. Sun'iy ganchlar esa maxsus pechlarda qizdirilib keyin uni maydalab tayyorlanadi. Qadimda maxsus ganch tayyorlaydigan ustalar bo'lib, ularni ganchkoplar deb yuritganlar. Ganchkoplar olib kelingan tabiiy ganch toshlarni yuqori issiqlik quvvati beradigan xumdonda 120-150 daraja haroratda kunduz kuni 6-7 soat qizdirib ertalabgacha asta-sekin sovitiq qo'yganlar. Erta bilan ganch toshlarni maxsus to'kmoqlar bilan maydalashgan, ularni g'alvir va elakdan o'tkazishgan. Bu ganchlar sortlarga ajratilgan. Eng mayin, donachali ganchlarni gulganch deb, ya'ni gul o'yish uchun ishlatiladigan ganch deb yuritilgan. Bu ganch qanchalik mayin bo'lsa, o'yma shunchali nafis, badiiy chiqqan. Mayin ganchlar nafis o'ymakorlikda parдоз qilishda ishlatiladi. Yirik ganchlar har xil suvoq, qora suvoq va g'isht terishlarda ishlatiladi. Yuqori haroratda qizdirish natijasida ganch tarkibidagi nam juda kamayib uning quvvati oshadi. Ganch o'rnida alebastr ham ishlatiladi, u suvoq, g'isht terishda, ayrim xollarda esa gulganch o'rnida ham ishlatiladi. Ganch o'ymakorligi bilan shug'ullangan ustalarni ganchkorlar deb ataladi. Ular

ganchning quvvatini aniqlash uchun uning qancha haroratda qizdirilishini va qanchalik tez yoki sekin qotishiga qarab aniqlaydilar. Juda katta tajribali ustalar ganchni qo'liga olib qismlaganning o'zidayoq uning eski yoki yangiligini, quvvatini aytib bera oladilar. Odatda, ustalar ganchning quvvatini aniqlashda ozgina qorib, o'yib ko'radilar. Agar quvvati juda kuchli bo'lsa, xattoki ming martagacha suvda aylantirishni talab qilishi mumkin.

Ganchning juda ko'p sirli xususiyatlari bo'lib, undan mohirona, omilkorlik va shoshilmay foydalanish kerak. Ganch qorish texnologiyasi uncha murakkab bo'lmasada, o'ziga xos nozik tomonlari mavjud bo'lib, uni puxta o'zlashtirishni taqozo etadi. Ganchni qadimgi ustalar sirli lagan idishlarda qorganlar, hozirgi kunda esa ko'proq zamonoviy plastmassa idishlardan foydalanilmoqda. Ganch qorishning tez ganch, sohta ganch, dukob, xovonda usullari bo'lib, ular o'ziga xos nozik yoki murakkab bo'ladi. Qorishma tayyorlashda ushbu nozik tomonlarini e'tiborga olish ustalarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tezganch-tez qotuvchi ganch qorishmasi bo'lib, ganchkorlikda, ravoq bog'lashda, suvoq va har xil ishlarda ishlatiladi. Bu qorishmani tayyorlash uchun idishga suv solib ustidan ganch solinadi va tezkorlik bilan qoriladi, ganchni ko'p aylantirilmaydi hamda kerakli joyga yetarli qilib tayyorlanadi. Tezganch qorishmasini tezlik bilan ishlatilmas ekan, u qotib qoladi hamda isrofga chiqadi.

Soxta ganch – qorilgandan keyin 30 minut atrofida

qotmasdan turadi. Soxta ganch qorishmasini tayyorlash uchun idishga suv solinib ustidan elangan ganch suv yuzasiga sepiladi. Bu suv yuzasi ganch bilan berkitilgunga qadar takrorlanadi. Bunda ganch suvga to'yinib boradi. Usta idishda shu soxta ganch qorishmasini bir chekkadan solib kerakli joyga ishlatadi.

Dukob usuli – biror yuza yoki narsani to'ldirish yoki berkitish uchun ishlatiladigan qorishma. Idishga suv solinib suv yuzi berkitilguncha ganch sepiladi. Bu usul – soxta ganchdan biroz suyuqroq tayyorlanishi bilan farq qiladi.

Xovonda – gul o'yishga mo'ljallab, ma'lum qadar kuchi kamaytirilgan ganch qoriladi. Uni tayyorlashning o'ziga xos tomonlari bor. Buning uchun sirli yoki plastmassa tog'oraga suv solinadi. Unga elangan mayda ganchni oxista, shoshilmay solinadi, Ganch suv yuziga chiqib ketmasligi uchun idish osti bilan aralashtiriladi. Tayyorlangan qorishma qota boshlaganda uni ishlatish mumkin. Ganch qanchalik kuchli bo'lsa, shuncha marta ko'p qoriladi. Shuning uchun qadimgi ustalar yuqori quvvatli ganchlarni ishlatganlar. Ular xovondani moxirlik bilan tayyorlashgani uchun ishlari bejirim, nafis va go'zal chiqqan. Ustalar yuqori quvvatli ganchlarni juda ko'p qoriganlar, shuning uchun ham ganch qorishmasi nafislashib borgan. Sekin va yumshoq xolatda qotgan xovondaga ustalar shirach ham qo'shganlar. Shirach uning quvvatini oshirgan.

Ganch o'rniga gips ham ishlatiladi.

Gips – oq, rangsiz shaffof, qizil, qoramtir yoki qora rangdagi

mineral. U juda mo'rt bo'lib, bo'z suvda eriydi. 80–90° haroratda qizdiradi. Ganch tarkibidagi suv bug'lanib ketadi. Agarda 120–140° qizdirilsa alebastrga aylanadi. Gipsdan qurilish materiali, undan qog'oz, tsement sifatida, meditsinada, xaykaltaroshlikda, o'ymakorlikda va bo'yoq ishlarida ham foydalaniladi. Gips suvga chidamsiz. Shuning uchun gipsni nam yerda asramaslik talab etiladi. Gipslardan umuman quruq suvoq, devor toshlari, yopmalar, karnizlar, yong'indan muhofazalovchi buyum yasaladi. Gips hozirgi kunda ganch o'ymakorligida ishlatilib kelinmokda. Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Shimoliy Kavkaz va boshqa yerlarda gips konlari bor.

Ganch o'zidan sovuq va issiqni juda kam o'tkazish xususiyatiga ega. Bu xususiyatlarni bilgan xalq, me'mor ustalar uylarning devor, shift, hattoki polini zax o'tmasligi uchun ganch bilan suvaganlar. Qadimda qurilgan uy, machit, madrasalarni ichiga kirsangiz pechkasiz, hech qanday elektr isitgichsiz xona qishda issiq bo'lishini ko'rishingiz mumkin. Yozda esa bu xonalar juda salkin bo'ladi. Chunki birinchidan, devor qo'sh sinchli qilinib, orasida bo'shliq qoldirilgan, ikkinchidan, devorlar qalin ganch suvoq kilinganligidir. Hozirgi kunda esa qalin beton uylar qishda sovuq, yozda esa qizib ketadi. Bu inson sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi ham mumkin.

Ganchning yana bir ijobiy tomonlaridan biri uning yengilligidir. Ganch betonga qaraganda 38–40% yengil bo'lgani uchun har xil gumbaz va maxsus binolarni qurishda ishlatiladi.

SHuning uchun qadimiy qurilgan arxitektura binolarining gumbaz va maxsus joylarini har xil qo'yma bezaklari faqat ganchdan qilingan. Ganchning yana ijobiy xususiyatlaridan biri uning fizik-mexanik xususiyati yaxshi bo'lganligidir. Masalan, ganch qotgandan so'ng torayish o'rniga kengayadi, bu esa yog'och konstruktsiyalarni yanada mustahkam, bog'lab turadi. Ganchning xususiyatlaridan yana biri u yuqori bosimga chidamli egiluvchanligi, (mo'rt emasligi) ya'ni qattiq zarbada ham sezilar sezilmas darajada o'z-o'zidan amortizatsiya berish xususiyatiga egalidir. Ganch bilan terilgan g'isht devor yoki ganch suvoq daxshatli zilzilalar bo'lganda ham zarar ko'rmaydi. Ganchni plastik, tez yopishib qolishi, devor va shiftni suvashda, shakllar tayyorlash, o'yma naqsh, tasvir ishlash, ustidan bo'yab tasvir va naqsh ishlashda qulaydir. Ko'p risolalarda, ganch suvga chidamsiz deb ko'rsatilgan, ya'ni ganch ko'pincha binoning ichkarisida ishlatiladi deyiladi. Lekin bu fikrga to'liq qo'shib bo'lmaydi, chunki ota-bobolarimiz qadimda juda kuchli ganchlar tayyorlay olish sir-asrorlarini bilganlar, shuning uchun ham xattoki binoning yomg'ir, qor tushadigan tom, gumbazlarining g'ishtlarini ganch bilan terganlar. Ulardan hech qachon chakki o'tmagan. Bu xolatni hozirda saqlanib kolgan minglab arxitektura yodgorliklarida ko'rish mumkin.

Ganch akustiklik xususiyatiga ham ega. Ganch bilan suvalgan xonada tovush jaranglab chiqadi. CHunki tovushni ganchli devor yaxshi qaytaradi. SHuning uchun ganch bilan suvalgan katta zallar

yorug' va akustik tovushlarni qaytarish xususiyatiga ega. Shu bois katta majlislar zallari, teatr sahnalarida hech qanaqa mikrofoniz majlislar yoki tomoshalar olib borilgan. Ganchga mineral bo'yoqlar qo'shib, rangli ganchlar ham tayyorlangan. Ganch o'ymakorligida kirma, ya'ni o'yilgan yerlarini rangli qorishma bilan to'ldiriladigan ganch o'ymakorlik turi mavjud. Ruschada «ganchevaya mozaika» deb yuritiladi. Naqsh turining eng kenjasi qirmadir. Qirma ganch o'ymakorlikning bir turi bo'lib, o'yib olingan chuqurchalariga rangli qorishma kiritiladi. Qirmaning ham o'ziga xos xususiyatlari bor. U ko'p rangni hoxlamaydi. Shu bilan birga uning pardozi ham odatdagidek emas. Qirmaga necha xil rang ishlatilsa, o'shancha marta ish bosqichi ortadi. Bunga sabab nusxada bir-biriga yaqin qo'yilishi kerak bo'lgan bo'yoqlarning o'rinlari bir yo'la o'yilgan bo'lsa, rangli qorishmani qo'yganda boshqa rang kirishi zarur bo'lmagan o'rniga ham tushib ketadi. Buning uchun naqqosh oldin bir xil rangni o'yib chiqib bo'lgach, rangli qorishma quyadi va naqsh satxini tekislab qirib tashlaydi. Shunda bo'yoq kirgan chegaralari aniq va chiroyli bo'lib turadi. Keyin yana qayta axta yordamida ikkinchi marta nusxa tushirib bu safar ikkinchi bo'yoqning o'rnini o'yadi, rang tayyorlab quyadi va yana oldingisi singari naqsh satxi (yuzi) ochilguncha qiriladi. Uchinchi, to'rtinchi rangli qorishma kiritilmokchi bo'lsa, xuddi shu ish bosqichi yana takrorlanadi. Shuning uchun qirmada ranglar soni asosan 2-3 xildan ortiq bo'lmaydi. Qirma yaxlitligi va rang turining kamligi bilan rangli naqshlardan yaqqol ajralib turadi.

Rangli ganch tayyorlashda avvalgi ustalar ko'mir kukunidan tegirmonda maydalangan qizg'ish yoki jigarrang g'ishtlarning kukunidan foydalanilganlar. Hozirda esa tayyor har xil rangli pigmentlardan foydalanilyapti.

Rangli pigmentni ganchga qancha ko'p qo'shilsa ham ganch uning kuchini kesib mo'tadil holga keltirib qo'yadi. Mineral bo'yoq nisbati 1:10 dan oshmasligi kerak, aksincha tayyorlangan rangli ganchning quvvati pasayib ketadi.

Ganchkorlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish.

O'qituvchi mashg'ulotning boshlanishida ganchkorlik hunarini o'rganish sabablari va uning ahamiyatini tushuntiradi. Yil davomida o'tiladigan mavzular bilan qisqacha tanishtiradi. San'at, xalq amaliy bezak san'ati, hunar, hunarmandchilik iboralari va atamalarining sharxi bilan tanishtiradi. O'zbek milliy an'analari, urf-odatlar hamda sangtaroshlik, suyak, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, kulolchilik, gilamdo'zlik kabi hunar turlari haqida umumiy tushunchalar beriladi. Ganch o'ymakorligi va uning turlari hamda o'ziga xos xususiyatlari kengroq tushuntiriladi. Ganchkorlik hunarining rivojlanish bosqichlari haqida kengroq ma'lumotlar beriladi. Hozirda ganchkorlik xunarining ko'z korachigidek asrab, avaylanib otadan - bolaga meros tariqasida milliy an'ana bo'yicha rivojlanib bizgacha yetib kelganligi hamda ularning yaratgan bebaho tarixiy obidalari-yu va uning bezaklarini kayta ta'mirlab, jon bag'ishlab kelayotganlari hakida talabalarga tushuncha berib

boriladi. Ganch o'ymakorligining turlari zaminli va zaminsiz o'ymalar haqida ko'rgazmali qurollar slayd videofil'm va reproduksiyalar namoyish qilinadi. SHu vaqtga qadar taniqli ganchkor ustalarni yetishtirib chiqargan ganchkorlik maktablari, ya'ni Buxoro, Samarqand, Namangan, Toshkent, Farg'ona va Xiva shaharlaridagi ganchkorlik maktablarining namoyandalari bo'lmish Usta SHirin Murodov (Buxoro), Ro'zimat Masharipov (Xiva, Usta SHamsiddin G'ofurov, Usta Quli Jalilov (Samarqand), Toshpo'lat Arslonqulov va Mahmud Usmonov, Abdurahmon Sultonov, Ziyovuddin Yusupov, Hayot Abdullaev, Asror Muxtorov va shu kabilar xaqida gapiriladi.

Ganchkorlikda ham o'ziga xos asbob-uskunalar ishlatiladi. Naqsh kompozitsiyalar chizish uchun chizg'ichlar, pargor, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom o'chirg'ichlar, shaffof qog'oz, oq qog'ozlar kerak bo'ladi. Ganch qorish uchun sirli tog'ora, ganchni elash uchun elaklar, katta va gichik chelaklar, ruletka, andava, ganch yuzasini ishlash uchun mayin latta, shovun, ulchov asboblari, maxsus qo'lqopcha, qum qog'ozlar, simlar va boshqalarni ishlatiladi. Asboblarni charxlash uchun qayroq tosh, ganch tog'ora, qolip reykalar ishlatiladi. Ganch o'yish va pardozlash uchun jarrohlik pichog'i, iskana, shuturgardon (tuya bo'yin), qalamtok qalami shkufta, minkor, morpech qalamlar, qalampux patak bindi, iskana, lo'lakash, zamin qalam, navo qalam,



pilta qalam, dudmal qalam va boshka asboblar ishlatiladi. Ganchkorlar qadimda 20 ga yaqin ganchkorlik asbob turlarini ishlatganlar. Hozirda bunday asbob turlarini tayyorlaydigan temirchi ustalarimiz juda oz qolganligi va bu asboblarni rastalarda sotilmasligi natijasida ustalarimiz asosan jarrohlik pichog'i (skalpel), minkor, iskana va shuturgardon asboblarida ishlab kelyaptilar. Biz uchun maktabda dastlabki ganchkorlik sirlarini o'rganish uchun asosan jarrohlik pichog'i va iskana kerak bo'ladi.

Ganch o'yish va pardoqlash uchun ishlatiladigan asboblar bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Jarrohlik pichog'i (skalpel) – po'latdan yasalgan har xil o'lchamli jarrohlik pichoqchasi. Undan hozir ganch o'ymakorligida ham keng foydalanilmoqda. O'ymani katta yoki kichikligiga qarab ustalar har xil o'lchamdagisini ishlatadilar. Undan foydalanishdan avval uni charxlab, dastasini qo'lga botmaydigan qilish uchun ikki tomoniga yupqa faner qo'yib, izolenta o'rab keyin ishlatadilar. Bu pichoq o'yilayotgan gulni chizishda, kesishda, o'yishda va pardoz berishda ishlatiladi. Ya'ni bu asbob o'ymakorlikdagi turli ishlarni bajarishda qo'l keladi.



Iskana – duradgorlikda oddiy asbob, uning uchi og'ma holatda kesik bo'lishi ham mumkin. Iskanalar har xil kattalikda bo'ladi, kichigi mayda o'ymalarda, kattasi yirik o'ymalarda ishlatiladi. Iskana temir sterjenining uzunligi 7 sm dan 10 sm gacha bo'lishi mumkin. Iskanani maktab ustaxonasida ham yasab olish mumkin. Shuturgardon-ganch o'ymakorligidagi asosiy o'yma asbob, sterjenli bel qismi tuya buyniga o'xshash 90° burchak ostida qayrilgan bo'lgani uchun uni shuturgardan, ya'ni tuya bo'yin deb, ham yuritiladi. Yassi po'latdan yasalgan kesgich qismining tig'i uchli bo'lib teng yonli uchburchakka o'xshaydi. Shuturgardon ornament-larning kontur chiziqlarini kesishda va o'ymali relefga pardoz berishda ishlatiladi. O'ymaga qarab shuturgardonning katta-kichigi tanlanadi. Chunonchi, katta shuturgardon naqshlarni konturlarini o'yishda va chuqur zaminli o'ymalarda, o'rtachasi o'ymaga pardoz berishda, gichik shuturgardan esa mayda o'yma ishlarini bajarishda ishlatiladi.



Pux qalam – xanjarga o'xshash ikki tomonga qiyalab ketgan o'tkir uchli (faqat uchi yoy shaklidagi ilmoqqa o'xshash qayrilgan bo'ladi) asbob. Kesgich qismining uzunligi 10 sm dan 18 sm gacha uzunlikda bo'lishi mumkin. Pux qalam egri sirtlarni tekislashda, stalaktitlar bilan ishlashda, pardozda navo ochishda ishlatiladi.



Bu asbob ham har xil kattalikda bo'ladi.



Minkor – uzun o'qli (sterjenli) uch qismiga uchburchak kurakchali keskin 90° burchak ostida

o'rnatilgan bo'lib, o'yma zaminini tozalashda tekislashda va chukurlashda ishlatiladi.

Qalamtok – tuzilishi huddi xanjar ko'rinishda bo'lib, kesgich qismi ikki tomonga qiyalab o'tkirlangan. U tirnab chiziq chizishda, o'yishda va ganchni teshishda ishlatiladi.

Morpech qalam–o'yilgan naqshlarning chetlariga yarim doiralar, bo'rtiq hosil qilish, uloqlarni qirqish hamda rel'efga lo'li pardoz berishda, o'yilgan naqshlarning chetlarida zanjira, xoshiya atroflarida turli ko'rinishdagi o'yinchoqlar yarim doiralar, nuqtalar chiqarishda ishlatiladigan ganch o'ymakorlik asbobi. Morpech qal-

am tuzilishi jixatidan yumaloq bo'lib, sirt kesish uchun ishlatiladi, u po'lat andazali shakldan, sterjendan va yog'och banddan iborat. Lux-yarim tsilindr sirtlarni hosil qilishda ishlatiladigan ganch o'ymakorlik asbobi. Tuzilishi jixatidan kesgich qismi yapalok yassi shaklda bo'lib uchi 90° burchak ostida buklangan bo'ladi. Qalam-xanjar shaklidagi asbob. Ba'zilarining uchi qayrilgan bo'ladi, axta yordamida tushirilgan naqshlarni uchib ketmasligi uchun tirnab chizib chiqishda ishlatiladi.



Pilta qalam – ganch o'ymakorlik asbobining bir turi, uning uchi qayrilgan bo'ladi. U yarim aylanadigan relyeflar xosil kilishda ishlatiladi.

Patak binni- shuturgardonning bir turi, u raxlarni uchli qilib kesishda va o'yishda ishlatiladi.



Nova-iskana ko'rinishida bo'lib, uchi egri, uchi ilmoq singari buklangan, o'tkir uchli ganchkorlik asbobining turi. Releflarni yumaloq qilib kesishda ishlatiladi.

Qalami shukufta-aylantirib teshik ochishda va chiziq chizishda ishlatiladi. Lo'lakash – umumiy ko'rinishi yarim yumaloq, buklangan, uchi yarim doira shaklida, asosan, lo'li pardoza

ishlatiladi. Bu asbob o'ymaning yirik yoki maydaligiga qarab har xil o'lchamda bo'ladi.

Sharafa qalam-uchi qayrilgan iskana, mayda muqarnaslarni o'yishda ishlatiladigan ganch o'ymakorlik asbobi. Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan asboblarni hozir topish qiyin, chunki sotuvda bunday asboblarni sotilmaydi.



Ganch o'ymakorlik asboblarini maxsus qalamdonda solib yurgan ma'qul. O'ymani yaxshi sifatli va tez bajarish ishlatilayotgan asboblarning o'tkirligiga bog'lik. Ustalarimiz haqida bir xalq maqoli bor, ustani o'zi usta emas balki uning ishlatayotgan asbobidir deyдилar. Haqiqatdan ham agar o'tmas bo'lsa ish sekin va sifat-siz chiqadi. Ganch o'ymakorlik asboblari sifatli po'latdan tayyorlanadi. Asboblarni shunday o'tkir bo'lishi kerakki, qalam ochish darajasiga ega bo'lishi kerak. Ular har xil yirik qayroqdan boshlab eng mayda qum qog'ozda charxlanadi.



Biz charxlash bilan tanishib chiqishdan oldin uning tuzilishini ko'rib chiqaylik. Asbob ikki qism ushlagich va kesgichdan iborat. Asboblarni charxlash esa uch bosqichda bajariladi.

Mexanik charxlash, ya'ni qo'lda yoki toshda charxlash.

Burchak (faska) hosil qilish.

Mayda qumli toshda charxlash.

Qirovini tushurish uchun maxsus toshda charxlash.

Charxlanayotgan asbobni aylanayotgan toshga qattiq botirmaslik lozim. Asbobni 10-15° qiyalikda qattiq botirmasdan charxlash va bir xilda ushlab maqsadga muvofiqdir. Charxlanayotgan asbobni bir xilda aylantirib turish 30 sekunddan oshmasligi lozim, chunki o'tkir qirrasini egilib ketadi. Shundan so'ng mayda to'rtburchakli toshda charxlanadi. Qayroq toshni biroz xo'llab asbobni 10-15° qiyalikda ushlab oldinga va ketinga olib kelib charxlanadi. Asbobni toshga bir necha bor olib borilgandan so'ng ikkinchi tomonini uchirib o'tkir bo'lguncha charxlanadi. Charxlashda qo'l asbob ustida o'zgarmasligi, masalan, harakat oldinga bo'lgan qo'l oldinga surilib ketmasligi, orqaga tortayotganda qo'lni ko'tarmaslik lozim. Agar biroz qiyalikni o'zgartirsak yuzasi bir xilda tekis chiqmaydi. Charxlash eng mayda qayroq toshda charxlash bilan



tugaydi. Charxlash 10-15 minutdan oshmasligi lozim. Agar charxlash cho'zilib ketsa unda kesgich o'tmas bo'lib qolishi

mumkin. Asboblarni charxlagandan so'ng uni o'tkir yoki o'tmasligini tekshirib ishni boshlash maqsadga muvofiqdir


Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari jarayonida talabalarning amaliy faoliyatiga tayyorgarliklarining turli ko'rinishlari kuzatildi va ba'zilarini



tashkil etishda ishtirok etishga muvaffaq bo'ldik. Bo'lg'usi tasviriy va amaliy san'at chizmachilik o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini amalga oshirishda ko'p qo'llanilayotgan ta'lim shakllari pedagogik amaliyot va plener sharoitidagi mashg'ulotlar

muzey amaliyotlari hisoblandi. Ushbu amaliyotlar o'quv tarbiyaviy jarayonning ma'lum bosqichida aniq vaqtlarda o'tkazilish ob'ekti, dasturi, rejasi tuzilgach amalga oshirildi.

Barcha ko'rinishdagi mashg'ulotlarda tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining kasb hususiyatlari nazariy bilimlarini chuqur o'rganishlari, zaruriy amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlariga olib borilgan tajriba-



sinov ishlari bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi, to'garak ishlarini boshqaruvchisida, hususan, ganch o'ymakorligi

to'garaki ishlari boshqaruvchisida quyidagi amaliy ko'nikma va malakalar shakllangan bo'lsa, uni amaliy pedagogik faoliyatga tayyor deb e'tirof etish mumkin:

1. Umumpedagogik metodik ko'nikmalar: dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil eta olish; turli manbalar bilan ishlay olish, ularni tahlil eta olish, ulardan kelib chiqadigan hulosalarni mustaqil tarzda amaliyotga tatbiq eta olish; o'quvchilar jamoasini bilimlarni o'rganishga jalb eta olish va uyushtirish; o'quvchilar va o'qituvchilar bilan muomala qila olish; pedagogik va tarbiyachilikdan mahsus professional malakalarini amaliy ish jarayonida qo'llay olish.




2. Kasbiy (xususiy) ko'nikma va malakalar; tasviriy va amaliy san'at asboblari bilan ishlay olish, uning metodikasini bilish va bu haqda to'garak qatnashchilariga tushunarli tilda bayon eta bilish; turli materiallar buyoq ganch, yog'och, qog'oz qoliplar, axtalar, moylar yelimlar va boshqalar bilan ishlay olish. Uning texnologik jihatlarini yaxshi bilish.

3. Ganch o'ymakorligi amaliyotida qo'llaniladigan naqshlar

kompozitsiyalari va ularning elementlarini chiza olish ganch o'ymakorligini berilgan yuzada o'ya bilish uning metodikasi, bosqichlari va boshqa jihatlarini bolalarga amalda ko'rsata olish; tasviriy va amaliy san'at asarlarining tayyorlanish texnologiyasi haritalarini tuza olishlari va ular bilan ishlash; turli badiiy obrazlarni yarata olish mo'yqalam, qalamlar, chizg'ichlar, o'lchov va rejalash asboblari bilan ishlay olishlari, bunga amal qilinishi lozim bo'lgan texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qila olish; tayyorlangan ishlarning namunalari ko'rgazmalarini tashkil eta olishlari, asarlarni o'qiy va tahlil eta olishlari, yo'l qo'yilgan kamchilik va yetishmovchiliklarni tahlil eta olish, ko'rsata bilish va tuzatish yo'llarini yoritib berish; o'quvchilarning ishlarini tayyorlash jarayonida va yakunlashida hulosalashga va hisobotlar tuzishga o'rgata olish; tayyor buyumlarga pardozi berish ishlarini tashkil etishga o'quvchilarni jalb eta olish; bu jarayonlarni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi qonun-qoidalarga rioya qilishni bilish.

4. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da mustaqil fikrlay oladigan turli murakkab vaziyatda ham ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan barkamol inson fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, raqobatbardosh kasbiy mahoratni o'zida namoyon etgan mutaxassislarni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Shu bois bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini yuqori malakali, mohir mutaxassislar sifatida



amaliy faoliyatga tayyorlashda oliy o'quv yurtlarida ularning mustaqil ishlarini samarali va uyushgan holda tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Talabalarning oliy o'quv yurtlaridagi mustaqil faoliyatini biz shartli ravishda quyidagi ikki yo'nalishga ajratdik:

1. Turli hildagi buyumlarni, buyurtmalarni san'at asarlarini yaratish.

2. Turli yo'nalishlarda olib boriladigan ilmiy tadqiqotot ishlarida ishtirok etish, izlanishlar.

Talabalarning tasviriy va amaliy san'at sohalari bo'yicha amalga oshiradigan mustaqil faoliyati quyidagi tarmoqlar bo'yicha bo'lishi mumkin:

1. Haykaltaroshlikda byustlar gorelef, bareleflar shakllarni yasash.

2. Me'morchilik qurilish, uy-joy, sanoat, hizmat ko'rsatish va tarixiy binolarning ta'mirlanishi, jihozlanishi, bezatilishida, turli chizmalarni, loyihalarni tuzishda ishtirok etish.

3. Grafikada-kitoblarni bezash, muqovalar va illyustratsiyani ishlash, gravyura, litografiya, ksilografiya, turli mavzularga bag'ishlangan ko'rgazma qurollar chizish.

4. Rangtasvirda manzaralar chizish, devoriy sur'atlar ishlash, portret, natyurmortlar chizish.

5. Amaliy san'atda uy-joy va iste'mol buyumlari yasash, ganchkorlik obyektlarida, o'ymakorliq naqqoshliq badiiy bezak ishlarini bajarish.

Talabalarning mustaqil faoliyatining ikkinchi yo'nalishi

ularning ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etishlaridir. Bu sohadagi faoliyatni quyidagi turlarda, yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin:

1. Turli jurnal va ilmiy to'plamlarga maqolalar tayyorlash.
2. Ilmiy amaliy va nazariy seminarlarda, konferentsiyalarda, turli anjumanlarda ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish.
3. Laboratoriyalar, amaliy ishlar bo'yicha hisobotlar tayyorlash.
4. O'quv-tarbiyaviy jarayonning turli sohalarini takomillashtirish bo'yicha dastur, tavsiyanomalarning qismlarini tayyorlash.
5. Kurs ishlari va loyihalarini bajarish.
6. Diplom ishlari va loyihalarini bajarish.
7. Kafedrada, fakul'tetda, oliy o'quv yurti miqyosida o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot ishlarida respondent, yordamchi laborant, assisment vazifalarini bajaruvchi sifatida qatnashish.
8. Tadqiqotlarning tarqatma va ko'rsatmali materiallar (testlar, kartochkalar, chizmalar, tablitsalar, so'rovnomalar va boshqalar) tayyorlashda ishtirok etish.
9. Ho'jalik hisobida ishlaydigan ilmiy tadqiqot laboratoriyalari, kichik va hususiy korxonalar, badiiy salonlari, birlashmalari faoliyatida qatnashish va boshqalar.

Ilmiy tadqiqot ishlarining talabalar tomonidan amalga oshirish mumkin bo'lgan tarmoqlari ko'lami ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlash bilan birga u

ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtining moddiy texnikaviy bazasini yaxshilaydi, malakali mutahassis kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi, turli korxonalar bilan hamkorligi, o'quv yurti zimmasiga turli badiiy buyurtmalarning tushishi, ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Mustaqil ishlarni bajarishga tayyorgarlik bosqichlari, o'quv jarayonining yillik bosqichlari bilan uyg'unlashtirilsa uning yanada samaradorligi oshadi. Tajriba-sinov ishlarining natijalari ham talabalarning ushbu yo'nalishdagi faoliyati ta'limning 4-kursida amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi, oliy o'quv yurtlarida bakalavriatlarni kasbiy tayyorlash ham 4 yillik ta'limga buysuntirilganidadir.

Shaxsiy vazifalarning taxminiy mavzulari.

1. Zamonaviy halq hunarmandchiligi, amaliy san'at ustahonasi tavsifi; mahsulot turi, ularni ishlab chiqish jarayonini avtomatlashganlik darajasi badiiy ishlab chiqarish tuzilmasi, kasbiy malaka darajasi.

2. Ishlatiladigan materiallar-albaster, yog'och, yelim, bo'yoq va ularning tavsifi; korxonalar va o'quv yurtining badiiy ishlab chiqarishni o'quv moddiy negizi bilan taqqoslash; korxonalarining energetik resurslari.

3. Dastgohlar, jihozlar ularni mexanizatsiyalash vositalari, konveyr tuzilishi, halq hunarmandchiligidagi turlari bilan tanishish; ishlash jarayonida yog'ochga, ganch o'ymakorligiga, ob'ektlarga ishlov berish turlari, vositalari, qo'llaniladigan asbob

uskunalarning miqdori va sifati.

4. Mehnatni tashkil etish halq ustalarining mehnatini me'yorlash va unga haq to'lash, uning iqtisodiy asoslari, rag'batlantirish turlari, badiiy-ijodiy mehnat jarayonining ilg'or metodlarini qo'llash, ularni tavsiflari.

5. Xavfsiz mehnat sharoitlarini tashkil etish texnika havfsizligi va yong'inga qarshi kurash qoidalari; xodimlarni ijtimoiy muhofaza etish; sanitariya gigiena me'yorlariga rioya qilish; korxonada va ish o'rinlarida mehnatni ilmiy tashkil etish.

6. Tasviriy san'at asarlari yaratilayotgan va namoyish etilayotgan ustahonalar va ko'rgazma zallarining tuzilishi va mazmuni; rassomlar, bo'yoqchilar, yetuk san'atkorlar ijodiy faoliyatlarini o'rganish; san'at asoslari yaratish jarayonida ishtirok etish. Ustoz murabbiylar, yetakchi mutahassislar rahnamoligida tabiatda, muzeylarda, ustaxonalarda, ko'rgazmalar va tantanalarda turli yumushlar bajarish.

7. Amaliy san'at asarlari va xalq hunarmandchiligi bo'yicha xalqimizning bebaho boyligi, madaniy qadriyatlari hisoblangan tarixiy obidalar ta'rifi; har bir viloyatdagi bu sohalarning tarixiy rivojlanishi, taraqqiyot ko'lami, faoliyatlari turlari, xalq ustalarining ijodiy maktablari faoliyati, qirralari, uslublari, mehnatlari mahsullari namunalari bilan tanishish va yoritish; halq amaliy san'ati va hunarmandchiligining oliy o'quv yurtiga yaqin joylardagi tarqalgan turlari bilan amalda shug'ullanishi va turli yumushlarni bajarish.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarining badiiy-grafika fakulteti talabalarini to'garak mashg'ulotlarini olib borishga tayyorlash plener o'quv amaliyotining ganch o'ymakorligi ish joylarida faoliyat ko'rsatishga tayyorlash metodikasini o'rgatishni ham tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi hisoblandi. Uning atroflicha tahlilidan so'ng bo'lajak to'garak ishlarini boshqaruvchilari egallashi lozim bo'lgan metodik bilimlar aniqlandi. Pedagogik amaliyot davrida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida talabalarni;

➤ O'qish davrida olgan nazariy va amaliy bilimlari, ko'nikma va malakalarini ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etishda qo'llaniladigan metodik yondoshuv, usullarini o'rgatish. Zamonaviy ishlab chiqarishda ijodiy mehnat jarayonida faoliyat ko'rsata olish malakalarini mustahkamlash;

➤ Xalq ho'jaligida ishlab chiqarish asoslari va yo'nalishlari, halq amaliy san'atining bu yo'nalishlarni estetik sifatlarini oshirishdagi imkoniyatlari bo'yicha yahlit tasavvur hosil qilishga tayyorlash;

➤ Ishlab chiqarish jarayoniga olib kirish ularni o'rganilayotgan sohada ishlaydigan mutahassislar, ularning faoliyatida qo'llaniladigan metodlar bilan tanishtirish;

➤ Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining ishlab chiqarish faoliyatlarini tashkil etish shakllari va ularga rahbarlik qilish metodlari bilan tanishtirish;

➤ Korxonalarda amalga oshiriladigan ish joylarida tasviriy va

amaliy san'at, xalq hunarmandchiligi mazmuni bilan yaqindan tanishtirish va talabalarning unda amaliy ishtirok etishini ta'minlash.

Barcha pedagogik tadqiqotlarda bo'lganidek bizning tadqiqotimizda ham talabalardan to'garak ishlarini boshqaruvchisi tayyorlash jarayoni natijalari haqida ob'ektiv hulosa chiqarish uchun ilmiy tadqiqot natijalarini aniqlashning so'rovnoma, test so'rovnomalarini o'tkazish usullaridan unumli foydalanildi. Ular nafaqat o'qituvchi murabbiylarning, balki talabalarni ham bo'lajak to'garak ishlari boshqaruvchilarini tayyorlashni amalga oshirish mazmuni, metodikasiga oid fikr-mulohazalarini aniqlash imkonini berdi (qo'llanilgan so'rovnoma va testlar ilovada berilgan).

2- ilovadagi test-so'rovnomaning savollariga olingan javoblar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalarning testlarni tushunishi, to'g'ri javoblarning qayd etilishining ko'payishi, umuman, talabalarning o'tilgan mahsus fanlarni o'zlashtirish bo'yicha bilimlari, ko'nikmalari sifati oshib borgan. Agarda 1-kurs tajriba guruhlarida va nazorat guruhlaridagi javoblar deyarli teng (faqat past javoblarda 1taga farq qiladi) bo'lgan bo'lsa, 5-kurs talabalarida esa tajriba guruhlarida to'g'ri javoblarni belgilash keskin ijobiy tomonga siljigan. Demak, talabalarning ta'lim olishi va kasb o'rganishlarida umumpedagogik va kasbiy tayyorgarligi darajasi, sifati ortib boradi va natijada ularning test-so'rovnoma savollarni aniqlikka yaqinroq javob bera olish imkoniyatlari ham ortadi.

2-ilovadagi test-so'rovnomaning 4-savoli talabalarning

umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garaklarni tashkil etishning mazmunini aniqlashga qaratilgan bo'lib, mazkur tadbirlar uchun haftasiga qancha o'quv soati ajratilganligi so'raladi. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, ko'pgina 1, 2-kurs talabalari haftasiga ikki soat deb, yuqori kurs talabalari esa haftasiga 2 soat deb belgilashgan. Dastlabki kurs talabalarining javoblarni shu holatda belgilashlariga sabab ularning "Pedagogika", "Tasviriy va amaliy san'atni o'qitish metodikasi" o'quv predmetini hali o'rganib ulgurmaganini umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlari mazmuni bilan nazariy jihatdan tanish bo'lmaganligi hisoblanadi, yuqori kurs talabalarining "Pedagogik amaliyot", "Sust amaliyot" "Faol amaliyotlar" bosqichlarida maktabdagi pedagogik amaliyoti jarayonida bevosita ishtirok etadilar hamda "Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" kursini o'qib o'rgangan bo'ladilar. Ammo ushbu savolning javobini "Pedagogika" kursining "Maktabshunoslik" bo'limidan, "Maktab pedagogika kengashi" mavzusidan izlash lozim bo'ladi. Chunki turli to'garaklarni tashkil etishning o'ziga hos hususiyatlari, ularni jihozlashda va hodimlar bilan ta'minlashda murakkablik yuzaga kelishini hisobga olib, an'anaviy tarzda haftasiga 1 soat ajratilsada, maktab pedagogika kengashi qarori bilan turlicha vaqt ajratilishi mumkin. Bu vaqt miqdori yuqori sinf o'quvchilari uchun 4 soat bo'lishi mumkin. Bu hususiyatlarni bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari pedagogik amaliyot mazmuniga tajriba-sinov tariqasida kiritilgan to'garak ishlariga oid materiallardan bilib

oladilar.

5-savolga esa talabalarga “O’zining umumiy o’rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at to’garaklarini olib borishga kasbiy jihatdan tayyor deb hisoblaysizmi?”.deb berildi. Javoblar ko’rinishi ha, yo’q, bilmayman tarzida keltirilgan, Albatta, bu holda 1-2-kurs talabalarining "ha deb javob berishlarini ”noto’g’ri” deb topdik va “past” darajada tayyorgarlik belgisi sifatida qaradik. Yuqori bosqich talabalarining “ha” deb javob berishlarini "to’g’ri" deb topdik. CHunki, ularning o’tiladigan fanlaridan belgilangan darajada nazariy, amaliy, mahsus tayyorgarlikdan o’tishi ma’lum davr o’ggandan keyingina yuzaga keladi va ularda o’ziga ishonch paydo bo’ladi. Bu ishonch turli o’quv mashg’ulotlarida qatnashish, fanlar asoslarini egallash, amaliy tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishda mustahkamlanadi.

So’rovnomadagi 6-savol "To’garaklarni tashkil etish va boshqarishga kasbiy tayyorgarlikniig qaysi qismlari eng muhim deb hisoblaysiz?". Javob ko’rinishi 6 banddan iborat bo’lib,talaba muhim deb hisoblaganini tanlab oladi (bu haqda 2-§ da batafsil to’xtalgan edik).

So’rovnoma testning 7, 8, 9, 10, 11, 12 qismlari 6 qismda ko’rsatib o’tilgan umumiy, kasbiy tayyorgarlikning har bir qismining o’quvchilarning faoliyatini tashkil etishga rahbarlik hislatlarining zaruriyati, shakllanishi e’tiborga olingan. Ushbu so’rovnoma-testni o’tkazishda 1-2 va 4-5 kurs talabalari tayyorgarlikning qaysi qismini o’qib ulgurganligi va o’sha

bosqichdagi beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarning talabalarning faoliyatida aks etishi darajasini hisobga oldik.

G'oyaviy-siyosiy, tashkiliy tayyorgarlik deganda talabaning turli mafkuraviy o'zgarishlarni bilishi, jamiyatimizdagi siyosiy voqealarni tushunishi va ularni tahlil qila olishi, Prezidentimiz siyosati mohiyati, ma'naviy hayotdagi voqealar, jahondagi boshqa davlatlardagi siyosiy harakatlar va ularning o'zgaruvchanligi, firqalar o'rtasidagi kurashlar, davlatlarni boshqarish uchun kurashlar, siyosiy oqimlar va boshqalar to'g'risidagi bilimi, dunyoqarashi natijasining aks etilishini ko'zda tutdik. Bu tayyorgarlikka joiz bilimlarni talabalar "O'zbekiston tarixi", "Din tarixi", "Falsafa", "Tasviriy san'at tarixi", "Sotsiologiya" (jamiyatshunoslik), "Siyosatshunoslik" (politologiya), "Huquqshunoslik" kabi o'quv fanlarini 1-7 semestrlarda o'qib o'rganadilar (1-ilova). Tajriba-sinov ishlari jarayonida bu siyosiy bilim, nazariy asoslarini amaliy yo'nalishga qaratish, siyosat va jamiyat, unda san'atni hususan amaliy san'atning o'rni, uni hayotga tadbiiq etish to'garak sharoitida amalga oshiriladigan o'quv tarbiyaviy ishlarning ahamiyati, bu jarayonda to'garak ishlarini boshqaruvchisini faoliyat mazmuni metodikasi ham sinab borildi,

Umumpedagogik va psixologik tayyorgarlik jabhasida bo'lajak o'qituvchi-murabbiylarning tarbiyashunoslik ilmi, ta'lim qonuniyatlari; atoqli pedagoglarning ishlari, ta'lim va tarbiya printsiplari, uslublari, bolalar jamoasini tashkil etish va unga rahbarlik qilish; bola ruhiyatini tushunish, uning yosh shaxsiy,

ruhiy, jismoniy hususiyatlarini anglay bilish hamda bu bilimlarni amaliy pedagogik faoliyatda doimo diqqat e'tiborda tutish kabilar nazarda tutildi.

Talabalar "Pedagogika tarixi", "Mutaxassislikka kirish" "Pedagogik mahorat", "Pedagogika", "Psixologiya", "Bolalarning yosh va fiziologik hususiyatlari", "Yosh psixologiyasi" kabi fanlarni egallaydilar.

6-topshiriqdagi v) bilan belgilangan kasbiy va maxsus tayyorgarlik darajasida "Tasviriy san'at", "Amaliy san'at", "Badiiy-grafika", "Chizmachilik" o'qituvchilariga hos bo'lgan tayyorgarlik nazarda tutildi. Zero amaliy san'atdan to'garak ishlarini boshqaruvchisi sifatida, shuningdek mustaqil ijodkor sifatida faoliyat ko'rsatish uchun shu sohalarning asosini egallagan bo'lishi lozim. Chunki ular bir-biri bilan uzviy bog'langan. Bu mahsus bilimlar quyidagilardan iborat. Chiziqalar va shriftlar, ularning yasalishi, loyihalash, aksonometriya asoslari, tasviriy, amaliy san'at ustalari, ularning ijodlari ushbu san'at tarixi, haykaltaroshlik asoslari materiallari, chizish, o'lchash kattaliklari materiallari, asboblari, ulardan foydalanish, o'lchamlar qo'yish, chizmakashlik mahorati, ranglar, tasvirlar, rangshunoslik ranglarni tayyorlash va ularni o'z o'rnida ishlatish, turli detallar, jarayonlar, insonlar qiyofalarini tasvirlash, peyzajlar chizish, natyurmortlar tayyorlash, amaliy san'at usullari, ganch va yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik o'ymakorliq haykaltaroshlik minniatyura san'ati asoslarini egallash va boshqalar tasviriy san'at o'qituvchisining

zaruriy ko'nikma va malakalaridan hisoblanadi. "Tasviriy san'at tarixi", "Jahon san'ati tarixi" (3-6- semestr), "O'zbekiston san'ati tarixi" (8-semestr), "San'at nazariyasi" (1-semestr), "Mutaxassislik tarixi" (10- semestr), "Qalamtasvir" (1, 3, 5, 7, 9semestr), "Rangtasvir" (2, 4, 6, 8, 10- semestr), "haykaltaroshlik" (2,4,7-semestr), "Kompozitsiya" (4-semestr), "Loyihalash,tuzish, o'lcham ishlari" (5-7- semestr), "Amaliy san'at" (3-semestr), "Naqqoshlik" (7- semestr), "O'ymakorlik" (3, 8, 9, 10- semestr), "Maktab badiiy bezak ishlari" (3, 4- semestr), "Tasviriy san'at texnologiyasi" (4-semestr) va boshqa fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining maxsus tayyorgarlik darajalari shakllanib boradi.

g) qismida ko'rsatilgan uslubiy tayyorgarlikda biz bevosita maktablarda, maktabdan tashqari tarbiya muassasalaridagi turli to'garaklarda tasviriy va amaliy san'at, chizmachilik haykaltaroshlik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchining zaruriy bilim, malaka, ko'nikmalarini nazarda tutdik. O'quv tarbiyaviy jarayon va uning mohiyati; ta'lim nazariyasi, uning didaktik printsiplari, metodlari; tasviriy san'at o'qituvchisining mashg'ulotlarni tashkil eta olish san'ati, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning o'ziga hos xususiyatlari; mashg'ulotlarning jihozlanishi,dars va to'garak mashg'ulotlarining tuzilishi,bolalar bilimlariga ta'lim standartlari asosida qo'yiladigan talablar, yangi reyting tizimi bo'yicha baholash me'zonlarini belgilash kabilar tasviriy san'at ta'limi

o'qituvchisining mahsus metodik bilimlari, ko'nikmalari asoslarini tashkil etadi. O'qituvchi ushbu bilimlarni "Pedagogika", "Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi", "Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi", "Chizmachilik o'qitish metodikasi" qator maxsus fanlar, "Pedagogik mahorat" kabi fanlarni o'rganish orqali o'zida namoyon qiladi.

d) va e) qismlar ilmiy-amaliy tayyorgarlik bo'lg'usi tasviriy san'at ta'limi o'qituvchisining bevosita amaliy pedagogik faoliyatdagi ijodkorlik hislatlarini ifodalaydi. Bu kasbiy hislatlar mahsus fanlarni o'rganishda va turli hil amaliy seminar mashg'ulotlarida, yakka tartibdagi mustaqil ijodkorlik mashg'ulotlarida turli hil, ya'ni boshlang'ich pedagogik amaliyotlarida, plener dala amaliyotida, talabalar ijodkorlik uyushmalarida turli buyurtmalarni bajarishda shakllanadi.

Test so'rovnomani o'tkazish davrida tajriba-sinov guruhlarida o'tkaziladigan o'quv-rejasidagi mashg'ulotlarni chuqur va keng, hamda ijodiy o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratildi. "Pedagogikada ilmiy izlanishga kirish" hamda mutaxassislik fanlarining batafsil yoritilishini ta'minlash davlat markazida bo'ldi. Natijada ushbu guruhlarda qo'yilgan savollarga nazorat guruhlariga nisbatan yuqori saviyada javob berish imkoniyatlari kuchayganligi namoyon bo'ldi (2-jadval).

Tajriba-sinov ishlarimizni olib borish jarayonida ma'lum bo'ldiki, amaliyotchi o'qituvchilar, to'garak ishlarini boishqaruvchilari faoliyatlarini takomillashtiruvchi uslubiy

ishlanmalar deyarli barcha joylarda yetarli emas. O'qituvchilar, murabbiylarga tasviriy va amaliy san'at, chizmachilik badiiy-grafikaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha to'garaklarni tashkil etishlarini ta'minlovchi ko'rsatmali va tarqatma didaktik materiallar to'plamlari, ishlanmalari juda zarur. Hozirgi davrda ushbu yo'nalishdagi mashg'ulotlarni zamon ruhida tashkil etishga o'z hissalarini qo'shish nazariyotchi va amaliyotchi mutaxassislarning oldida turgan muhim vazifadir.

XULOSA

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ma'naviy hayotida yuz berayotgan islohotlar, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun joriy etilgan ta'limning davlat standartlari, umumiy o'rta ta'limning yangi dasturlarini muvaffaqiyatli hal etilishi eng avvalo oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifatiga bog'liq. Zero puxta professional tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis jamiyat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirish kafolatidir.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni ganch o'ymakorligi to'garaki ishlarini boshqarishga tayyorlash muammosini ilmiy-metodik jihatdan hal etish uzluksiz ta'lim tizimining to'rt muhim bo'g'ini- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy pedagogik ta'lim, maktabdan tashqari o'quv-tarbiya muassasalari uchun xodimlar tayyorlash sifatini bir muncha

oshirish imkonini beradi.

Respublikamizda mavjud o'rta mahsus va oliy o'quv yurtlarida talabalarni sinfdan va maktabdan tashqari muassasalardagi to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlash hozirgi zamon talabi darajasida yo'lga qo'yilmagan. Shuning uchun ham talabalarni amaliy san'at to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash masalasi pirovard natijada badiiy yo'nalishdagi maxsus san'at o'quv muassasalariga nisbatan yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'quvchi-yoshlarni yetkazib berishi hisobiga professional ustalarning kasbiy mahorati yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi. Bu omil birinchi navbatda san'at, hususan halq amaliy san'ati vositasida mamlakatni dunyoga tanitsa, ikkinchi navbatda yuqori saviyada ishlangan amaliy san'at buyumlari vositasida millatning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Respublikamizning oliy o'quv yurtlarida talabalarni ganch o'ymakorligi to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashning ilmiy metodik asoslarini tadqiq etish quyidagi ilmiy-nazariy hulosalarni ishlab chiqish imkonini berdi.

1. San'atning turli sohalariga ixtisoslashgan to'garaklar uchun to'garak boshqaruvchisini tayyorlash masalasi mamlakatimiz pedagogika fani va uning amaliyoti uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Respublikamizda milliy istiqlol mafkurasi yaratilayotgan bugungi kunda san'at yo'nalishidagi to'garaklar o'z saflariga o'quvchi-yoshlarni jalb etish bo'yicha sportdan keyingi o'rinda turgani bois o'quvchi-yoshlarni komil inson bo'lib yetishishlari o'zlarining badiiy estetik qiziqishlari, e'htiyojlarini

qondirish uchun eng qulay mos va hos sharoit yaratadi. Bu o'quvchi-yoshlarni turli noto'g'ri hatti harakatlardan, jamiyatimiz, ma'naviyatimiz uchun yot va zararli bo'lgan oqim hamda guruhlarga adashib kirib ketishdan saqlaydi. Shu bois ham oliy o'quv yurtlarida talabalarni tasviriy va amaliy san'atdan to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashni pedagogik muammo sifatida e'tirof etish lozim.

2. Respublikamiz ta'lim tizimida mavjud to'garaklar, hususan ganch o'ymakorligi to'garaklari mashg'ulotlarining mazmuni, tarixiy taraqqiyotini pedagogika fani nuqtai nazaridan o'rganish shuni ko'rsatadiki, ganch o'ymakorligi amaliy san'atning o'zbek halqining madaniy-maishiy hayotiga chuqur kirib borgan soha sifatida juda jiddiy tarixga ega. Uning boy badiiy an'analari avloddan-avlodga, asrdan-asrga o'tish jarayonida saqlanib, rivojlanib kelgan. Shu rivojlanish jarayonida bu hunarni yosh avlodga o'rgatish borasida bir qator pedagogik tamoyil, metodlar texnologiyalar shakllangan. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashda xalq pedagogikasi shaklida yetib kelgan o'ziga hos metodik yondoshuvlar ta'lim mazmunidan o'rin olishi lozim, Bu o'z navbatida to'garak mashg'ulotlarini didaktikaning tarixiylik printsipi asosida ya'ngi tarixiy an'analarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan hamoxang tarzda tashkil etishga zamin yaratadi.

3. Oliy o'quv yurtlarining Badiiy-grafika fakultetlarida

talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash mazmuni va metodikasi ilmiy asoslangan, tajriba-sinovdan o'tkazilgan, pedagogik ishlov berishda (aprobatsiyada) o'zining samaradorligini ko'rsatgan holda belgilanishi lozim. Mazkur tadqiqot natijasida talabalarni to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashning mazmuni va metodikasini yuqorida qayd etib o'tilgan talablar asosida ishlab chiqildi.

4. Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning eng samarali, maqsadga muvofiq shakli shubhasiz oliy o'quv yurtlarining Badiiy-grafika fakultetlaridir. Chunki bu fakultetning o'quv rejasida mazkur sohaga yaqin fanlarning o'qitilishi bois qo'shimcha o'quv materiallarini maxsus fanlar hajmi, mazmuniga singdirish umumiy ta'lim jarayoniga zararsiz kechadi. Qolaversa, to'garak ishlarini boshqarishga tayyorlashning mazmunida talabalarning mustaqil ishlashlari ustivor yo'nalish hisoblanadi. Zero ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning sifati tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan dasturni o'zlashtirish evaziga talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi bilan belgilash mumkin. Chunki, mustaqil ishlay olgan mutahassis tanlagan ixtisosligini tarixiy-nazariy asoslari, texnologik jarayonlari, texnikasini yaxshi egallaganligi bois uni shogirdlariga, to'garak katnashchilariga o'rgatishga qodir. Oliy ta'lim muassasasining eng muhim vazifasi uning metodik asoslarini o'rgatishdir.

5. Badiiy-grafika fakulteti talabalaridan tasviriy va amaliy

san'at, hususan, ganch o'ymakorligi to'garaklarini boshqarishga tayyorlash ommaviy harakter kasb etmasligi lozim.

Zero har bir shaxsni o'z zohiriy va botiniy olami, uning mazmuni mavjudki, bu mazmun bo'lajak ixtisoslik yo'nalishida albatta inobatga olinadi. Ikkinchi jihatdan, talabalarda ganch o'ymakorligi to'garaki ishlarini boshqarishga tayyorlash uchun tanlab olishda o'ziga hos mezonlarga amal qilish talab etiladi. Mazkur tadqiqotda aynan mana shu mezonlar ishlab chiqildiki, ular bo'lajak to'garak boshqaruvchilarini to'g'ri tanlab olishni pedagogik jihatdan kafolatlaydi. Bu mezonlar ichida irsiy va hududiy, shaxsiy hususiyatlarga alohida e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlari ham bu yondoshuvning to'g'riligini isbotladi.

6. Tajriba-sinov ishlari davomida Badiiy-grafika fakultetlarida ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash mazmunini belgilashga qo'yiladigan pedagogik talablar ishlab chiqildi va amalda sinab ko'rildi.

7. Talabalarni bo'lajak kasbining o'z shaxsiy faoliyatining istiqboldagi nafini, samarasini his qilish unga ishonch nuqtai nazaridan qarashi uchun mashg'ulotlarning amaliy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Amaliy yo'nalish talabalarning pedagogik va ishlab chiqarish amaliyotida ta'minlanadi. Kasbning bozor iqtisodiyotidagi nufuzini anglash, uning elementlarini o'zlashtirib borish uchun talabalarni ta'lim bosqichlari va semestrlar oralig'idagi ta'tillarda turli unumli faoliyatlarga, shuningdeq oliy o'quv yurti otalig'idagi turli ma'qomdagi ta'lim

muassasalariga (umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, maktabgacha ta'lim muassasalari, fahriylar va nogironlar maskanlarn va h.k.) hayriya yordamlari uyushtirishga jalb etish ularni kasbiy shakllanishida amaliy maktab bo'lishi bilan bir qatorda san'atni mehr-shavqat, muruvvat vositasi sifatida ko'llashga, bu jihatlarni to'garaklarda tarbiyalanayotgan o'quvchi-yoshlarning ongiga ham singdirishga tayyorlab boradi.

Tadqiqot natijalari Respublikamiz oliy o'quv yurtlari Badiiy-grafika fakultetlarida bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlashni yangi sifat darajasiga ko'tarishi, badiiy ta'lim tizimining eng "og'riq" nuqtasi to'garaklarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga zamin yaratadi. Bu amaliy san'atning tarixiy badiiy an'analarini davom ettirish, boyitish, keyingi avlodlarga yetkazish, pirovard natijada millatning ma'naviyatini yuksaltirishdek muqaddas vazifaga xizmat qiladi.

**GANCH O'YMAKORLIGI TO'GARAK
ISHLARI FAOLIYATIDAN NA'MUNALAR**


























FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-son Qarori // <https://lex.uz/docs/4795687>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4467-son Qarori // <https://lex.uz/docs/4532156>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori // <https://lex.uz/docs/4084926>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/3107036>

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 maydagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 331-son qarori // <https://lex.uz/docs/5437603>

6. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

7. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Ma'rifat, 2017, 5-avg.).

8. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 486 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

9. **Abdullayev N.** San'at tarixi. Pedagogika bilim yurti studentlari uchun qo'llanma. 1-tom. – T.: O'qituvchi, 1986. – 272 b.

- 10. Abdullayev N.** San'at tarixi. Pedagogika bilim yurti studentlari uchun qo'llanma. 2-tom.–T.: O'qituvchi, 1987. – 282 b.
- 11. Abdullayeva Q.M.** Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Diss. ped. fan. nom. – Toshkent: 2006. - 182 b.
- 12. Азимов И.** Росписи Ўзбекистона. / Сост.: Шаякубов Ш.К. Гамбург В.С. - Т.; Изд-во лит. и искусств, 1987. -144 с.
- 13. Александрова Н.С. Е.А. Флерица** о значении народной игрушки // Проблемы дошкольного образования XXI века. – М.: МПГУ, 2000. – С.29-31.
- 14. Аманжонов С.А.** Индивидуальный подход в обучении младших школьников изобразительному искусству. Автореф. дисс... и на соискание ученой степени доктора пед. наук. – Москва, 2004. –С. 34.
- 15. Amanullayev A.A.** Oliy o'quv yurtlarida talabalarni ganch o'ymakorligi to'garak ishlarini boshqarishga tayorlashning ilmiy metodik asoslari (badiy-grafika fakultetlari materiallari misolida). Ped. fan. nomz. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss... avtoreferati. –T.: 2001. –24 b.
- 16. Андрюшина И.И.** Проблема взаимосвязи изобразительного творчества и речевого развития дошкольников в трудах Е.А. Флериной // Проблемы дошкольного образования XXI века. – М.: МПГУ, 2000. – С.54-57.
- 17. Антонова А.В.** История развития эстетического воспитания и педагогического образования. – М.: РИЦ «Альфа», МГОПУ, 2000. – С.42-43.
- 18. Антонова А.В.** Эстетическое воспитание как средство формирования свободной личности в истории философской и педагогической мысли // Проблемы свободного воспитания и развития личности: Сборник научных статей. – М., 1997. – С.33-38.
- 19. Анхель Фернандес, Габриэль Мартин Ройг.** Рисунок для модельеров. – М.: Арт-Родник, 2007. – 124 с.
- 20. Achilov M.O.** O'qituvchi odobi. – Т.:O'qituvchi,1997. –115 b.
- 21. Базен Ж.** История истории искусств. –М.:Прогресс, 1995. –204с.

- 22. Байрамбеков М.М.** Система занятий по ознакомлению дошкольников с декоративно-прикладным искусством народов Дагестана. – Махачкала: Дагучпедгиз, 1996. – С. 11-18.
- 23. Байрамбеков М.М.** Система обучения дошкольников и младших школьников народному искусству (на материале искусства народов Дагестана): Автореф. дисс. ... доктора пед. наук. – М., 2001. – 36 с.
- 24. Бакиева О. А.** Методика преподавания изобразительного искусства: учеб. пособие. – Тюмень: Изд-во: ТюмГУ, 2012. – 222 с.
- 25. Беспалько В.П.** О критериях качества подготовки специалиста. // Вестник высшей школы. – М.: Высшая школа, 1988. – № 1. С.3-8.
- 26. Беспалько В.П., Татур Ю.Г.** Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалистов. – М.: Высшая школа, 1989. – 144 с.
- 27. Богатеева З.А. И.Л. Гусарова** – видный исследователь детского изобразительного творчества // Становление теории и практики дошкольного воспитания: Межвузовский сборник научных трудов. – Л., 1991. – С.67-73.
- 28. Бойметов Б.** Основы изучения национального орнамента и методика его обучения в ХГФ педагогических институтов. Автореф. дисс... канд. пед. наук. – М.: 1992. –16 с.
- 29. Boymetov B.** Plastik anotomiya o'quv qo'llanma. – Toshkent, "Ilmziyo" nashriyot uyi, 2005. –228 b.
- 30. Bulatov S.** O'zbek halq amaliy bezak san'ati (o'quv-metodik qo'llanma). – Т.: Mehnat, 1991. – 384 b.
- 31. Bulatov S., Ashirova M.O.** Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – Т.: Qomuslar Bosh Tahr., 1992. – 47 b.
- 32. Bulatov S., Yaxyoyeva Z.I.** Ganch o'umakorligi. –Т.: PUMM, 1993. – 27 b.
- 33. Буторина Т.С.** Национально-региональный компонент в образовании (для школ Архангельской области). – Архангельск, 1994. –120 с.
- 34. Васильева Е.И.** Декоративное рисование как одно из средств художественного воспитания детей дошкольного возраста. – Автореф. дисс...

канд.пед.н. – М.: МГПИ, 1986. – 24 с.

35. Вершинина Н.А. Методика обучения дошкольников изобразительной деятельности как научная дисциплина: Информационная модель развития: Монография. – СПб.: Изд-во «Милена», 2007. – 225 с.

36. Виноградова Г. Уроки рисования с натуры в общеобразовательной школе: Пособие для учителя. – М., 1980. – 312 с.

37. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психологические очерки. 3-е изд. – М., 1990. – 360 с.

38. Возрастные и индивидуальные особенности образного мышления учащихся. Под ред. И.С.Якименской. – М.: Педагогика, 1989. – 224 с.

39. Gancharova D.A. Vuxoro zardo'zlik san'ati (albom). –Т.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – 112 b.

40. Горбылева Е.В. Воспитательные ценности в педагогическом наследии Е.Н. Водовозовой. Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – Смоленск, 2002. – 24 с.

41. Гунина Е. В. Теория и методика обучения изобразительному искусству: история и современность. – Владимир: Изд-во ВлГУ, 2012. – 98 с.

42. Davletshin M.G. Ta'limning psixologik asoslari. -Т.: O'qituvchi, 1978. -В. 20.

43. Дудина Н.А. Методы преподавания изобразительного искусства в школах Франции и Германии // Современные проблемы обучения и воспитания детей и молодежи: Сборник научных трудов. – М.: РОУ, 1995. – С.59- 65.

44. Дусавицкий А.К. Формула интереса. – М.: Педагогика., 1989. – С 232.

45. Ерасов Б.С. Социальная культурология: Учебник для студентов учебных заведений. 3-е изд., доп., перераб. – М., 2000. – 296 с.

46. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. – М.: Педагогика, 1987. – 160 с.

47. Zunnunov Z. Xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasi. Xalq ta'limi. 1992. – № 8-son. – В. 12-15.

48. Ibn Arabshoh. Amir Temur tapixi. II-kitob. O'zbekiston Respublikasi Fanlar

Akademiyasi. –Т.:Fan, 2018. – В.144.

49. Игнатов В.Г., Бутов В.И. Регионоведение (методология, политика, экономика, право). – Ростов н/Д, 1998. – 224 с.

50. Игнатъев С.Е. Закономерности изобразительной деятельности детей: Учебное пособие для вузов. – М., 2007. – 312 с.

51. Инагомова А.И. Пути совершенствования трудового воспитания школьников средствами изобразительного искусства. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. –Т.: 1979.– 26 б.

52. Кадырова М.В. Использование национально-художественных традиций на уроках по изобразительному искусству. Автореф. дисс... на соискание ученой степени канд. пед. наук. –Москва, 2004. – 24 с.

53. Казакова Р.Г. Методологическое изучение детского рисунка в исследованиях Е.А. Флериной // Проблемы дошкольного образования XXI века. – М.: МПГУ, 2000. – С.13-15.

54. Kashtachilik san'ati dasturi. Maktab va maktabdan tashqari muassasalar to'garaklari uchun. Tuzuvchi: Xudoyorova. – Т.: O'z PFITI, 1992. – 25 b.

55. Комарова Т.С. Изобразительная деятельность в детском саду: обучение и творчество. – М.: Педагогика, 1990. –142 с.

56. Коменский Я.А. Буюк дидактика. –Т.: Ўқитувчи, 1975. –250 б.

57. Косенко Н. А. Индивидуальный подход в обучении мастерству акварельной живописи. Автореф. дисс... и на соискание ученой степени канд. пед. наук. – Орел, 1998. –24 с.

M U N D A R I J A

SO'Z BOSHI	3
TALABALARNI GANCH O'YMAKORLIGI TO'GARAGI ISHLARINI BOSHQARISHGA TAYYRLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI.	
Talabalarning ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash muammosining pedagogik nazariya va amaliyotdagi ahvoli.....	6
Oliy o'quv yurtlarida talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash pedagogik muammo sifatida.....	33
Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning pedagogik mezonlari.....	41
TALABALARNI GANCH O'YMAKORLIGI TO'GARAGI ISHLARINI BOSHQARISHGA TAYYORLASHNING MAZMUNI VA METODIKASI.	
Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlashning mazmuni va metodikasini aniqlash.....	57
Talabalarni ganch o'ymakorligi to'garagi ishlarini boshqarishga tayyorlash	70
XULOSA.....	114
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	132

AMANULLAYEV ABDINABI ABDIMUMINOVICH

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI
GANCH O'YMAKORLIGI TO'GARAGI FAOLIYATINI
BOSHQARISHGA TAYYORLASHNING TASHKILY
METODIK ASOSLARI.**

Muharrir: Alijon Jo'rayev
Tex. Muharrir: Marg'uba Qurbanova
Musahhih: Nodira Jumaboyev

Bichimi 60x84/16. "Times New Roman" garniturada
raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i
8,1. Adadi 100 nusxa.

Buyurtma № 124

"USMON NOSIR MEDIA" NASHRIYOTI

Namangan shaxri, Navoiy ko'chasi, 36

Nashriyot litsenziyasi raqami AI – 156

2019 yil 14-avgustda berilgan.

"FAZILAT ORGTEX SERVIS" hususiy korxonasi
bosmoxonasida chop etildi. Manzil: Namangan sh.

A. Temur ko'chasi 97 uy.

Tel: (+998) 91-346-44-43, (+998) 97-256-87-86